

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Koreys tili frazeologiyasida “Xursandchilik” va “G'amginlik”
his-tuyg'ular birikmasi**

Bajardi: Koreys filologiyasi ta'lim

yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Maxkamova Yulduz Omonjon qizi _____

Ilmiy rahbar: Koreys filologiyasi kafedrasida

katta o'qituvchisi Kim Y.V. _____

Ilmiy maslahatchi: f.f.n., dots. Kim V.N. _____

TOSHKENT-2015

Mundarija

KIRISH	3
1-bob. Frazeologizmlarning o’rganilish tarixi va nazariy asoslari	6
1.1. Koreys va o’zbek tilshunosligi nuqtai nazarida frazeologizmlar.....	6
1.2. “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ularining leksik tahlili.....	13
2-bob. “Xursandchilik” va “G’amginlik” frazeologizmlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko’ra turlari, ularning o’zbek tilidagi muqobili ...	24
2.1. “Xursandchilik” iboralarning somatik yo’nalish bilan ifodalanish nazariyasi va ularning xususiyatlari.....	24
2.2. “G’amginlik” iboralarning somatik yo’nalish bilan ifodalanish nazariyasi va ularning xususiyatlari.....	40
XULOSA VA TAKLIFLAR	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasidagi o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqalarida koreys tilining tez rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda koreys tili siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ta'lim sohalarida ish yurituvchilar orasida keng foydalaniladigan tilga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek, "Yuksak marralarni ko'zlagan har qanday millat, xalq uchun ta'limni rivojlantirish hayot va mamot masalasi bo'lib kelgan"¹. Shu sababli mustaqillikning datslabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Dunyoda til haqidagi ta'limotlar taraqqiyotning turli davrlarida goh e'tirof etilgan, goh rad qilingan yoki unutilgan bu haqiqat o'tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida, xususan, bugun tilshunoslikning turli yo'nalishlaridagi haqqoniy tadqiqotlarning chinakam tamal toshiga aylandi. Jumladan, antroposentrik tilshunoslik, soddaroq aytganda, markazida inson turadigan tilshunoslik mazkur haqiqatga asoslangan, uning namoyon bo'lish yo'llarini tadqiq etish va asoslashga qaratilgan eng istiqbolli yo'nalishdir.

Binobarin, xalqning ziynati va tabiatini, ruhiyati va mentalitetini tildan ayri holda tasavvur qilib ham, tadqiq etib ham bo'lmaydi. Tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli so'z, ibora-ifodalarida xalqning mental o'ziga xosligi muayyan tarzda in'ikosini topadi. Zotan, bunday obrazli ifodalar xalqning teran dunyoqarashi, obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o'laroq dunyoga kelgan.

Xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi ma'lumotlarning eng qimmatli manbasi bu frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar va shakllardir. Boshqacha aytganda, xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma'naviy tajribalari, ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, ya'ni uning o'zigagina xos olamning lisoniy manzarasi til vositasida shakllangani kabi mazkur tajribalarning barchasi ayanan xalqning tilida o'z ifodasini topadi. Asosiy tadqiqod obyektimiz bo'lmish "Koreys

¹ Karimov I.A. "Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimizga va qat'iy irodamizga bog'liqdir". -T., O'zbekiston, 2004. B.284.

tili frazeologiyasida “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ular birikmasi”da ham kelib chiqqan his-tuyg’ularning nazariyasi va semantik so’zlarning xususiyati haqida umumiy izlanishlar orqali koreys tilida his-tuyg’ularifodalanishining tildagi o’ziga xosligi ko’rsatib o’tilgan.

His-tuyg’ularni ifodalaydigan frazeologizmlarda insoniyatning tuyg’ulari namoyon qilinadi. Frazeologizmlarni tadqiq qilish orqali koreys xalqining o’ziga xos xususiyati, odatlari, his qilish holatlarini tahliliy o’rganishdan iboratdir. Bundan tashqari frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jiddiy qiyinchiliklar tug’diradi. Koreys tilidahis-tuyg’ularni ifodalaydigan frazeologizmlarning ma’nolarini ko’rib chiqqan holda, ularni o’zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar, tarjima usullari, ikki tilning o’zaro muqobil bo’lgan frazeologizmlarini aniqlash mavzuning dolzarbligi keltirilgan holatlar bilan izohlanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishida qo’yilgan asosiy maqsad koreys tilida xursandchilik va g’amginlik his-tuyg’ularning ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlarni ma’noviy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Frazeologizmlar haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish;
2. Koreys tilida iboralarning semantik xususiyati va asosiy turlarini aniqlash;
3. Frazeologizmlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlarini tahlil etish;
4. His-tuyg’ular va ularning frazeologiyada qo’llanilishi;
5. Koreys tilidaxursandchilik his-tuyg’ularini ifodalaydigan iboralarning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rib chiqish;
6. Koreys tilida g’amginlik his-tuyg’ularini ifodalaydigan iboralarning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rib chiqish;
7. Koreys tilidagi frazemalarning o’zbek tilidagi muqobilini aniqlash.

Malakaviy ishning obykti. Koreys tilida xursandchilik va g'amginlik his-tuyg'ularini ifoda etuvchi iboralarning semantik tahlili malakaviy ishning obykti hisoblanadi.

Malakaviy ishning predmeti. His-tuyg'ularni ifoda etuvchi iboralar va o'zbek tilidagi ularning muqobillari ishning predmetiqilib olindi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur frazeologizmlarni to'plashga manba sifatida 1996-yilda Pak Yong Jun (박영준)Chxve Gyong Ponglar (최경봉) tomonidan yaratilgan “관용어사전”[Koreys tili frazeologik lug'ati], 1999-yilda Koreys tili milliy tadqiqot markazida nashr qilingan “표준국어대사전” [Koreys tili katta izohli lug'ati], 1997 yilda Li Gi Don (이기동) tomonidan yaratilgan “관용어, 은유, 그리고 환유”[Frazeologizmlar, metaforalar va o'xshatishlar] va“옛센스국어사전” [Koreys tili izohli lug'ati] lug'atlari xizmat qildi.Shuningdek, malakaviy ishda koreys tilida keltirilgan misollar Koreyada 1999-2000-yillardachop etilgan gazetalar, ya'ni “국민일보”(Xalq xabarlari),“동아일보”(Donga xabarlari), “문화일보”(Madaniyat xabarlari) gazetalar, she'r, ocherk va 2006-yilda Li Gyu Te (이규태) rahbarligida chop etilgan 한국대표고전소설(“Koreys zamonaviy hikoyalari”) to'plamlaridan olindi.

Mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.Ushbu malakaviy ish natijalari koreys tili frazeologiyalarini o'rganishga qaratilgan zamonaviy koreys tili grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar uchun ham nazariy, ham amaliy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Koreys xalqi qachon va qanday holatda xursandchilik va g'amginlikni his qilishini frazeologiyalar orqali o'rganish va bu tuyg'ularning har bir turlarini birma-bir o'rganib chiqish malakaviy ishning ilmiy yangiligi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot yurtimiz o'quv muassasalarida, maktab, litsey va oliy o'quv yurtlarida koreys tilini o'rganuvchi o'zbek talabalariga dars berish jarayonida foydali qo'llanmabo'lishi ushbu malakaviy ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Malakaviy ishning tuzilishi va hajmi: Mazkur malakaviy ish kirish, ikkita bobni o'z ichiga oluvchi asosiy qism, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida malakaviy ishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va o'rganilganlik darajasi ko'rsatildi.

1- bobda frazeologizmlarning o'rganilish tarixi, uning koreys va o'zbek tilshunoslari tomonidan ko'rib chiqilganligi yoritib berilgan.

2- bobda "Xursandchilik" va "G'amginlik" frazeologizmlarning leksik tahlili va ularga misollar keltirib o'tilgan.

Xulosa qismida koreys tili frazeologizmida necha foizi xursandchilik, necha foizi g'amginlik iboralardan iborat ekanligi va yakuniy fikrlar yoritilgan.

1- bob. Frazeologizmlarning o'rganilish tarixi va nazariy asoslari

1.1. Koreys va o'zbek tilshunosligi nuqtai nazarida frazeologizmlar

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan til birligi ibora(frazeologik birlik) deyiladi. Frazeologizmlar o'z ma'no xususiyatlari bilan so'zlovchining boshqa odamlarga va muloqot predmetiga nisbatan emotsional ekspressiv qirralarga ega bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalaydi.

Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarning leksik-grammatik imkoniyatlari, ularning to'g'ri ma'nolari asosida birikishidan hosil bo'lmaydi. Bundan tashqari ular tarkibidagi so'zlarning semantik hamda grammatik munosabatida erkinlik ko'rinmaydi. Chunki bu xil birikma, so'zlarning erkin birikmasi bo'lganidek, nutq momentining o'zida tashkil topmay, balki ungacha tilda bir butun holda qo'llanib, yashab kelgan bo'ladi. Uni bir butun holga olib kelgan hodisa tarkibidagi so'zlarning bir ma'no markaziga kelib birlashishi, bu so'zlarning birikib turib bir ma'noni ifodalashidir². Masalan, quyidagi frazeologizmlarning so'zma so'z tushuniladigan ma'nolariga e'tibor bersak:

- 머리가젓다[bosh(i) ho'l bo'lmoq] – biror g'oya yoki xurofotlarga aralashib qolmoq;

- 코가우뚝하다[burni ko'tarilmoq] – takabburlik qilmoq.

Frazeologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlar ma'nolaridan kelib chiqmasligini misollarda ko'rish mumkin. Chunki frazeologizmlar so'z birikmasi tarkibidagi biror so'zni yoki butun birikmani ma'lum bir obraz asosida ko'chma ma'noda qo'llash yo'li orqali hosil bo'ladi. Frazeologik ma'no ham shu yo'l bilan yuzaga keladi.

Frazeologiyalar haqida eng birinchilardan asosiy ilmiy tadqiqot ish olib borgan professor Kim Chong Tek (김종택):“Idioma, ya'ni iboralar grammatik va leksikjihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lib, boshqa tillar bilan ajralgan holda o'ziga xosxususiyatli bo'lgan so'z birikmasidir”, deydi³.

² Raxmatullaev SH. Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari. -T.: O'zFAnashriyoti, 1997.B.5.

³ 김종택. «이디엄연구». -한국어문학회, 1991. 17.쪽.

Pak Yon Sun (박영순):“Frazeologiya bu - ikki va undan ortiq soʻzlar bilan birlashib, soʻz birikmasida mantiqiy boʻlmasada, grammatik jihatdan bogʻlanib umumiy keng maʼnoni anglatadigan birikmadir”, deydi⁴.Umumiy qilib olganda, ikki va undan ortiq soʻzlarning qoʻshilishida grammatik jihatdan bir maʼnoni anglatsada, aslida uch va undan ortiq maʼnoni beradigan soʻz birikmasi mavjudligi sababli kichik yoshdagilar va chet elliklarning tushunib yetishida qiyin vaziyatlarni keltirib chiqarish holatlari ham bor⁵.

Professor Oʻ Je Un (오제운): “Frazeologiya degani bu bir mamlakat til orasida odatiy foydalanadigan mustaqil gap boʻlib, ikki yoki undan ortiq soʻz birikmasi bir-biriga yaqin munosabatda bogʻlanib, umumiy maʼno beradigan va undan ortiq maʼno anglatadigan birikmadir”, deydi⁶.

Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan turgʻun birikmalar boʻlsa ham, soʻzlar singari, odatda, yaxlit bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyatlar uni soʻzlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishini taʼminlaydi. Shu boisdan frazeologik birliklar soʻzlar singari tilning lugʻaviy birliklari qatoridan oʻrin egallaydi. Shuningdek, frazeologizm soʻzlarning, soʻz birikmalarining vaoʻzaro semantik bogʻliq birikmalarining umumiy nomi boʻlib, ular shakliga koʻra oʻxshash sintaktik strukturalardan farqli oʻlaroq, nutq jarayonida yuzaga chiqmaydi, aksincha fikr ifoda etilayotganda semantik struktura va aniq leksik-grammatik tarkibning aralashgan mutanosibligini saqlaydi. Bu fikrimizga N.M Shanskiyning frazeologizmga bergan quyidagi taʼrifi asos boʻladi: “Frazeologizmlar turgʻun soʻz birikmalari kabi tilning tayyor soʻz birikmasi boʻlib, maʼno jihatidan yaxlit mazmunga ega. Ular tarkibidagi soʻzlar va komponentlarning joylashishi oʻzgarmaydi.”⁷. Tilshunos S.Alpatov ham “frazeologiya” soʻzining bir necha maʼnosi borligini aytib oʻtgan. Lingvistik atama sifatida u tilshunoslikning alohida sohasi boʻlib, frazeologik birliklar deb ataluvuchi turgʻun soʻz birikmalarini oʻrganadi. Shuningdek, muayyan tilga xos mazkur birikmalarining yigʻindisini ham

⁴박영순. «관용어에 대하여» -국어교육, 1995. 53-54.쪽.

⁵박영순. «관용어에 대하여» -국어교육, 1995. 55.쪽.

⁶오제운. «우리말관용어연구». -원관대, 1998. 23 쪽.

⁷Шанский. Н.М. Лекцикологиясовременногорусскогоязыка. -Москва,1992. С.173.

anglatadi⁸. Shu o'rinda iboralarning frazeologik birlik hisoblanuvchi iboralarning quyidagi xususiyatlarini aytib o'tish mumkin:

1. Iboralar ma'nosiningahamiyati va qo'llanishi jihatdan odatda, so'zga teng keladi;
2. Iboralar ko'chma ma'no ifodalaydi va ta'sirchanlikka, obrazlilikka ega bo'ladi;
3. Iboralar gap tarkibida yaxlit ko'rinishda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi;
4. Iboralar ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Frazeologik birlik haqida fikr yuritganda shuni ta'kidlash lozimki, frazeologik birlik tilshunoslikning o'ta murakkab aspektli obyekt ekanligi ko'pgina tadqiqotchilarning izlanishlaridan ma'lum bo'ldi. Tilning yaxlit lug'aviy birligi sifatida uni grammatik, semantik, funksional, hatto sotsiologik jihatdan o'rganish mumkin. E.A.Umarov ko'pgina tilshunoslarning ishlari bilan tanishib chiqib, bu olimlarning leksiklashgan turg'un so'z birikmalarini ularning komponentlari to'g'ri yoki ko'chma ma'no bildirishiga qaramay frazeologizmlarga qo'shadi⁹. Bunga qarshi o'laroq u ma'nosi komponentlarning leksik ma'nosidan kelib chiqmaydigan so'z birikmalarni frazeologizm deb ataydi. Bunda komponentlarning bari yaxlit holda bir butun ma'noni beradi.

Shubilanbirga, "frazeologiya"

tushunchasiuning ko'lamivaboshqabo'limlarbilanchegarasinianiqlashtirishmuammos ibilanuzviy bog'liqdir.

Demak, frazeologik birlik tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birliklar kiradi. Turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi hisoblanadi. Frazeologik birlik haqida fikrimizning davomi sifatida frazeologiya sohasiga ulkan hissa

⁸Hamroyev M.A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. - T., 2007. B.21.

⁹Umarov E.A. Frazeologik lug'at, Xazoin-ulmaoniy A.Navoiy, Toshkent 1991. B.14.

qo'shgan A. Abduazizovning frazeologik birlikning ma'no jihatdan tasnifini keltirish mumkin. Olim frazeologik birliklarni quyidagi guruhga bo'ladi:

1. Frazeologik butunlik.
2. Frazeologik chatishma.
3. Frazeologik qo'shilma.

1. Frazeologik butunlik – iboralar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlash mumkin bo'lgan frazeologik birlikdir¹⁰. Masalan: misi chiqdi, xamir uchidan patir kabilarni o'zbek tilida misol qilishimiz mumkin. Quyida koreys tilidagi frazeologik butunliklarni ko'rib chiqamiz: 쥐도새도모르게 (sichqon ham, qush ham bilmaganaday), 비행기를태우다 (xushomad qilmoq), 눈도감작안하다 (bir zumda), 손을보다 (usta ko'rmoq), 입에침이마르다 (maqtanib gapirmoq), 눈을딱감다 (ko'z yumib ketmoq, voz kechmoq), 파김치가되다 (itday charchamoq), 눈을감다 (ko'z yummoq), 가슴을치다 (yuragini siqmoq), 가슴을태우다 (yuragini yondirmoq).

Yuqoridagi misollar ma'no jihatdan bir butun birlik bo'lib, ammo shu ma'noga so'z birikmasining u yoki bu komponentining ta'sirini sezish mumkin.

2. Frazeologik chatishma - ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmaydigan, xatto unga zid ma'no ifodalaydigan frazeologik birlikdir¹¹. Masalan, o'zbek tilida oyog'ini qo'lga olmoq (juda tez yurmoq, yugurmoq) kabilar. Koreys tilida esa: 마음을먹다 (qaror qilmoq), 얼굴이두겁다 (yuzi qotmoq), 바람을맞다 (aldanmoq), 코가납작해지다 (ruhiyati tushib ketmoq), 눈앞에보이는것이없다 (ko'ziga hech narsa ko'rinmaslik), 정신을차리다 (hayoli joyiga kelmoq), 정신이들다 (o'ziga kelmoq).

Ushbu iboralar turg'un so'z birikmasining bir butun ma'nosi tarkibidagi komponentlarning ma'nosidan kelib chiqmaydigan, umuman unga taalluqli bo'lmagan so'z birikmlari hisoblanadi.

3. Frazeologik qo'shilma - tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nosi saqlanadigan, biri ikkinchisiga bog'liq ma'noni reallashtiruvchi nutqiy matn

¹⁰Xojiyeva A. Tilshunoslikningizohlilug'ati. -T., B.125.

¹¹O'shamanba. B.125.

vazifasini o'z ichiga olgan sintagma¹². Masalan, qo'l ko'tarmoq, ishtahasi ochilmoq kabilar. Koreys tilidagi frazeologik qo'shilmalarga quyidagilar misol bo'ladi: 눈(을) 뜨다(ko'zi ochilmoq), 눈에 거슬리다[걸리다](ko'ziga baloday ko'rinmoq), 눈에 칼을 세우다(ko'ziga pichoq tiramoq), 눈에 선하지 않다(ko'z oldiga keltirmaslik, eslamaslik), 눈물이 앞을 가리다 (ko'z yoshlari oldini to'smoq), 눈살이 꺾끗하다(ko'z qarashi qattiq), 눈이 빠지도록 기다리다(ko'zi to'rt bo'lib kutmoq), 눈에 불을 켜다(ko'zida olov chaqnamoq), 눈에 가시가 돋히다(ko'ziga zirapcha chiqmoq).

Yuqoridagi iboralarning tarkibidagi so'zlar biri ikkinchisining ma'nosiga uzviy bog'langan holda birikma ham erkin, ham turg'un holda kelishi mumkin.

Asosiy tadqiqot ishimiz bo'lmish "Korey tili frazeologiyasida "Xurandchilik" va "G'amginlik" his-tuyg'ular birikmasi" da asosan his-tuyg'ularga suyangan holda amalga oshirilgan bo'lib, shunday his-tuyg'ularga aloqador tadqiqotlar falsafa, psixologiya, fiziologiya, tibbiyot sohasida faol amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda lingvistika sohasida ham his-tuyg'ularga aloqador tadqiqotlar katta e'tiborga olinib, ta'lim tizimida tadqiqotni rivojlantirish yo'lga qo'yilgan. His-tuyg'ularni ifodalaydigan iboralar somatik iboralarni o'rganishdan qisman farq qilsada, bir-biriga aloqadordir. Chan Se Gyon (장세경), Chan Gyon Xe(장경희), Tokunaga Lijmi(도쿠나가이즈미)lar his-tuyg'ularni ifodalaydigan frazeologiyalarni asos qilib olib o'rganishni boshlagan olimlardir. Shuningdek, his-tuyg'u lingvistikasiga oid tadqiqotlarni Kim Chon Tek (김종택), Son Suk Ja (성숙자), Kim Xo'ng Su (김홍수), Kim Son Xve (김선희), Kim Gi Xo'ng (김기홍), Kim Se Jon (김성희), Lim Ji Ryon (임지룡), Yon In Mi (윤은미), Chan Se Gyon (장세경), Chan Gyon Xe (장경희)kabi olimlar ham olib borganlar.

Shuningdek, Kim Chon Tek (김종택) his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan yaqin sinonimlarni, masalan, "xursand-quvnoq, nochor-bechora, go'zal-chiroyli, xafabo'lmoq-g'am tortmoq" kabi sinonimlarga oid so'zlarning ma'nolari asosida qiyosiy ish olib borgan¹³.

¹²O'shamanba. B.125.

¹³김종택. «동의어의의미평경: 의미평정방법의모색을위하여» -대구교대,1991.6.쪽.

Son Suk Cha (성숙자) his-tuyg'ular leksikasi orasida "yaxshi-yomon, xursand-g'amgin, quvonmoq-xafa bo'lmoq" kabi so'zlardan 6 ta semantikani isbotlab berib, tahlil qilgan. Ya'ni bu 6 ta semantikani yana 3 guruhga ajratib ichiga kiritgan: tashqi, ichki va umumiy tuyg'ularga bo'lgan. Umumiy tuyg'ularga yoqtirish va yoqtirmaslik, ichki tuyg'ularga xursand va g'amgin, tashqi tuyg'ularga esa quvonmoq va xafa bo'lmoq kabi semantik so'zlarni kiritgan¹⁴.

Ruhiyatni bildiradigan so'zlarga aloqador iboralar ustidan asosan Kim Xing Su (김흥수) va Kim Se Jun (김세준) lar ilmiy ish olib borishgan. Kim Xing Su 1991-yilda ruhiyatga taalluqli fe'llar va fe'llarning bo'limlarini ajratib, ularning muammoli taraf yechimlarini topishga harakat qilgan. Kim Xing Su qalb va zamon somantikasiga aloqador tushunchalarni tahlil qildi. Shuningdek, "Somatikada qiyosiy ifodalardan 40 tasi his-tuyg'ularni ifodalaydigan iboralardan tashkil topgan", deb tasdiqlaydi¹⁵.

Yuqorida keltirilgan frazeologiyaga oid ta'rif va fikrlarni jamlab quyidagicha xulosaga kelamiz, ya'ni, frazeologik birliklarning til normasi bilan bog'liqlik xususiyatlarini shunday izohlash mumkin: *birinchidan*, frazeologizmlar o'z lisoniy tabiatiga ko'ra, barqaror bo'ladi, aks holda, ular frazeologik birlik degan maqomga ega bo'lmas edi va erkin so'z birliklariga aylanib qolgan bo'lardi. *Ikkinchidan*, hamma frazeologizmlar lug'atlarda, normativ va maxsus qo'llanmalarda, ma'lumotnomalarda qayd qilingan, tanlab olingan, umummajburiy qo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan, kodifikatsiyalashgan bo'lishi shart, aks holda, ular turg'un frazeologik birliklar bo'lmasdan, balki oddiy iboralar bo'lib qoladi. *Uchinchidan*, frazeologizmlar tilning boshqa birliklari singari har doim rivojlanib, o'zgarib turadi, ular dinamik xususiyatlarga ega, aks holda frazeologizmlar bir qolip birikmalarga aylanib qoladi va o'zining semantik-stilistik xususiyatlarini ma'lum darajada yo'qotadi. *To'rtinchidan*, frazeologizmlar ham leksik birliklar

¹⁴성숙자. «우리말감정어회의의미구조» -부산대학교, 1991. 9.쪽.

¹⁵김흥수. «현대국어심리동사구문에관한연구». 1991.15.쪽.

kabi o'z sinonim va variant qatorlariga ega, bu ularning ma'nolarini ifoda qilishda, til boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

1.2. “Xursandchilik” va “G'amginlik” his-tuyg'ularining leksik tahlili

Hissiyot borliqqa, turmushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsni sub'ektiv kechinmalarining aks ettirilishidir. Shaxs tirik mavjudod bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir. Shuningdek, yakkahol (individual) inson sifatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlarini xolisona (ob'ektiv) aks ettiradi, in'ikos qiladi.

Hissiyot deb tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan hosil bo'ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Ana shu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, hissiyot, ya'ni bizning his-tuyg'ularimiz o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib bunda narsa va hodisalarning bevosita o'zi emas, balki shu narsalarni aks ettirish jarayonida hosil bo'ladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, his-tuyg'ular o'z-o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Ma'lumki, har bir odam aniq bir jamiyatda yashaydi. Har bir jamiyatning esa shu jamiyat a'zolari tomonidan axloqiy normalari va qoidalari bo'ladi.

Ba'zi predmetlar, voqealar, harakatlar shaxsni quvontiradi, huzur bag'ishlaydi, xursand qiladi. Ba'zi predmetlar esa shaxsni xafa qiladi, qahr-g'azabini qo'zg'aydi, behuzur qiladi. Tashqi ta'sirotning xarakteriga (ijobiy yoki salbiyligiga) qarab shaxs unga nisbatan o'zining munosabatini bildiradi. Tashqi ta'sirotning yoqimli tomonlari shaxsda ijobiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Maza qilish, qoyil qolish, huzur-halovat, sevinch, quvonch, xursandchilik kabi holatlar ijobiy munosabatning ko'rinishlaridir. Tashqi ta'sirotning noxush, yoqimsiz tomonlari shaxsda salbiy munosabatlarni paydo qiladi. G'azablanish, ranjish, xafalik, qo'rqish, behuzur bo'lish kabilar salbiy munosabatning ko'rinishidir. Shaxs o'zining kundalik faoliyatida turli-tuman hissiy holatlarni boshdan kechiradi. Agar u xavf ostida bo'lsa, qo'rquvni his qiladi. Muvaffaqiyatga erishsa zavqlanadi, intilish va harakatlari to'g'ri, unumli ro'yobga chiqsa, quvonadi, ruhi ko'tariladi. Demak, shaxsda turli his-tuyg'ularning vujudga kelish manbai uning ehtiyojlari,

natijalari va istaklaridir. Shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi harakatlarining muvaffaqiyati ijobiy hislarni, uning qiyinchiliklarga duch kelishi, mag'lubiyatga uchrashi esa, salbiy tuyg'ularni uyg'otadi. Turli emotsiyalar shaxsning xulq-atvoriga o'ziga xos hissiy ohang beradi, barqaror kechinmalarni vujudga keltiradi. Ba'zan esa, emotsiyalar to'satdan va shiddatli paydo bo'lib tez o'tadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, emotsional holatlar odamlarda turlicha kechadi. Ba'zi odamlarda bu holatlar barqaror, ta'sirchan, chuqur kechsa, ayrim odamlarda yengil o'tadi. Shaxslar his-tuyg'ularining chuqurligi, kuchi, barqaror yoki barqaror emasligi bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Har bir shaxsda hissiy holatlar uning boy ichki dunyosi, g'oyaviy yo'nalishi, e'tiqod va ideallari bilan bog'liq bo'ladi. Ijobiy his-tuyg'ular shaxsning butun vujudini qamrab oladi, uning hayotini yanada mazmunli tetik va baxtiyor qiladi. Bunday hislar shaxsga qanot bag'ishlaydi. His-tuyg'ular shaxs to'g'risida, uning psixik holatlari va individual xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Hissiyotlarning bir maqsadni ko'zlashi, prinsipialligi shaxsning so'zi bilan ishi bir bo'lgan barkamol odamga aylantiradi.

Psixologiyada ichki his-tuyg'ularni ifodalashning 22 ta holati kuzatiladi, ya'ni bular: xursandchilik, quvonch, baxt, mamnuniyat, qiziqish, qulaylik, intilish, hayajon, hayrat, titroq, charchoq, uyalmoq, qo'rquv, zerikish, siqilish, jahl, yolg'izlik, yakkalik, xafagarchilik, yoqtirmaslik, g'am, umidsizlik kabilardir.

Insoniyatning yashashi harakat bilan bog'liq. Inson harakat qilib yashaydi va o'ziga bog'liq bo'lmagan boshqa narsalar bilan aloqa ulaydi. His-tuyg'u ham huddi shunday. Tuyg'u qalbni harakatga keltiradi. "Emotion", ya'ni, tuyg'u, lotin tilidagi "emovere" so'zidan kelib chiqib, "e" "tashqari", "movere" "harakat" degan ma'noni bildiradi. Ya'niki, tuyg'u "tashqariga harakat qilib ko'rsatmoq" deganidir.

Tuyg'ularda asosiy birinchilikda turadigan hislar ham bor. Asosiy tuyg'ularni yuz ifodasidan yoki yurak hissidan anglab yetish mumkin. Amerikalik professor

Kemper: “Quvonch, jahl, g’amginlik, qo’rqinch kabi tuyg’ular insoniyat yuzida tez seziladigan eng birinchi tuyg’ulardan biridir”, deb ta’kidlab o’tgan¹⁶.

Biz kechiradigan hislar mazmuniga ko’ra, noxush yoki xushkayfiyat hosil qiluvchi holatlar bo’lib, biri huzur beruvchi kayfiyat, ikkinchisi behuzur qiluvchi kayfiyat turiga ajratiladi. Chunki kishining biror narsaga munosabati hamisha ijobiy va salbiy kechinma orqali bo’ladi. Huzur qilish, suyunish, baxtiyorlik, quvonish, shodlanish va yaxshi ko’rish kabi hislar yaxshi kayfiyat uyg’otuvchi ijobiy munosabat tuyg’usidir. Behuzurlik, qayg’urish, xafagarchilik, g’am-g’ussa, noumidlik, yomon ko’rish, jirkanish, nafrat kabi hislar salbiy kayfiyat tuyg’ularidir.

Koreys tilida frazeologiyalarning deyarli yarmidan ko’pi salbiy va ijobiy ma’nodagi iboralarni o’z ichiga oladi. Bunday iboralar malakaviy ishda “Xursandchilik” va “G’amginlik” tuyg’ularni ifodalaydigan frazeologiyalar deb olindi. “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ularni ifodalaydigan frazeologiyadagi ifoda ko’rinishi nazariy metafora va tushunchalar qamrovi, semantik va somatik xususiyatlari orqali e’tiborga olingan.

Somatizm so’zi grekchadan olingan bo’lib, “soma” – “tana” degan ma’noni bildirib, odam va hayvon tana a’zolarini ifodalaydigan ot so’z turkumiga mansub so’zlarga aytiladi. Somatik frazeologizmlar tor va keng tushunilishga ega. Tor ma’noda tushunilganda, faqat odam tana a’zolarini ifodalovchi somatizmlardan tarkib topgan frazeologizmlar nazarda tutiladi, keng ma’noda tushunilganda, tarkibida somatik komponent sifatida nafaqat odam tana a’zolarini ifodalovchi, balki hayvon tana a’zolarini ifodalovchi so’zlar ham qatnashgan frazeologizmlar nazarda tutiladi.

His-tuyg’uni ifodalovchi iboralar quyidagicha bo’ladi:

1. Xursandchilik.

Xursandchilik “hayotiy kuch” sifatida tushuniladi. Ya’ni, xursandchilikning o’ziga

¹⁶이성식-전신현. «감정사회». -한울아카데미, 1995. 47.쪽.

xosxususiyati titroq, hayajon, bag'ri to'lmoq, hotirjamlik, beg'amlik, kayfiyat ko'tarinkilik, yengillik, yoqimlilik, to'la-to'kislik va boshqa so'zlar bilan birga qo'llanilib keladi. Qoniqish holati bilan raqs, qo'shiq va tabassum mavjud bo'lgan quvonch "Bayram" kayfiyatida ekanligidan darak beradi. Yana xursandchilik "Umid" sifatida ham qaraladi. Xursandchilikni ifodalash tushunchasi "ko'rish, eshitish, ta'm bilish, his qilish" va boshqa a'zolar bilan ta'riflanadi. Xursandchilikni ifodalaydigan eng asosiy somatik so'z – bu "yurak" hisoblanadi. Shu bilan birgalikda kindik, bel, oyoq kabi tana a'zolari ham qolgan quvonch his-tuyg'ularni ifodalashda qo'llaniladi.

2. G'amginlik.

G'amginlik "Tana a'zolariga zarar yetishi" deb ham qaraladi. G'amginlikayriliq, og'ir bosim, yong'in, yo'qchilik, zarba kabila ichki a'zolarining, ya'ni, ter, suyak, qon kabilarning zarar yetishi orqali ifodalanadi. G'amginlikning yana "Yorug'lik va hayotiy kuchni yo'qotish" degan nomi ham bor. Uning tushunchalariga og'irlik, qorong'ulik, qulash, xolsizlik kabi so'zlar kiradi. Yana g'amginlikni ifodalaydigan tushunchalar qorong'ulashish, ko'z yosh to'kish, bo'yin egish, ezilish kabi ko'rish sezgia'zolari bilan ifodalanadi. G'amginlik tuyg'ularini ifodalaydigan tana a'zosiga ham asosan "yurak" kiradi.

G'amginlik tuyg'usini aks ettirgan so'z birikmalari iboralarda eng ko'p qismni egallaydi. Agar his-tuyg'ularni ifodalaydigan iboralarni somatik so'zlar bilan tahlil qiladigan bo'lsak, tahminan 516 ta his-tuyg'ularni ifodalaydigan iboralar orasidan 396 tasi, ya'ni 77%i somatik frazeologiyalardan tarkib topgan. Chunki insoniyat ham jismoniy jihatdan, ham ma'naviy jihatdan faoliyat olib boradigan tajribalari orqali his-tuyg'ularni ifodalaydigan iboralarning ko'pchiligi tana a'zolari bilan birgalikda qo'llaniladi. Buning natijasida, shuni anglab yetish mumkinki, his-tuyg'ularni ifodalaydigan frazeologiyalar bevosita somatik frazeologiyalar bilan bog'liqdir. His-tuyg'ularni ifodalashning asosi bo'ladigan muhim somatik frazeologiyalarning 83 tasi ko'z va 65 tasi yurak tana a'zolari bilan qo'llanilgan.

Yuqoridagi fikrlardan sezilib turibdiki, his-tuyg'ularni ifodalaydigan frazeologiyalar odam tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan somatik so'zlar asosida tashkil topgan.

Koreys tili frazeologiyasida xursandchilik his-tuyg'ularini ifodalaydigan so'zlarga quvonch, shodlik, minnatdorchilik, ta'sirlanish, xotirjamlik, umid, yorqinlik, maqto'v kabilarni kiritishimiz mumkin. Xursandchilikni ifodalaydigan so'zlarning ta'rifi quyidagichadir:

1. Xursandchilik – jismoniy jihatdan yuzaga keladi. Kulguni his qilish va jismoniy harakat orqali kayfiyat ko'tarilsa, yuzda tabassum orqali tashqariga bildiriladi. Kulguning kuchayishi qiziqarli holatdan quvonchning yuzaga kelganidan darakdir. Bunga misol qilib quyidagi frazeologiyalarni olishimiz mumkin: 입이 함박만하다(og'zi tog'oraday ochilmoq); 입시울이 함박꽃이다(og'zi salla guliday ochilmoq); 같이 벌어지다(birga yig'ilmoq); 입을 다물지 못하다(og'zini yopa olmaydi); 입이 찢어지다(og'zi yirtilmoq); 배꼽을 쥐다(kindigiga mushtlamoq); 배꼽을 잡다(kindigini ushlamoq); 배꼽을 빼다(kindigini yulmoq); 배꼽이 빠지다(ichagi uzilguncha); 허리가 끊어지다(beli bukilib ketgungacha); 허리가 부러지다(beli sinib ketmoq); 허리를 잡다(belini ushlab olmoq); 무릎을 치다(tizzasiga urmoq); 손뼉을 치다(kaftini urmoq).
2. Shodlik – kayfiyat ko'tarilganda ijobiy tuyg'u orqali rivojlanib, shodlik asosida hayotiy kuch bag'ishlaydi. Kayfiyat yaxshilanib qo'shiq aytish yoki raqsga tushish holati o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Misollar: 신바람이 나다(ajoyib shamol esmoq); 신바람이 들리다(ajoyib shamol esishi eshitilmoq); 신명이다(ko'tarinkilik paydo bo'lmoq); 무릎을 치다(tizzasini urmoq); 어깨가 들썩들썩(yelkasi ko'tarilib tushmoq); 어깨춤을 추다(yelkasi raqsga tushmoq); 콧노래가 나오다(xushtak chalmoq); 신이다(qiziqishi uyg'onmoq); 어깨춤이 절로 나다(yelkasi o'z-o'zidan uchmoq); 휘파람을 불다(xushtak chalmoq); 콧노래를 부르다(xushtak chalmoq).
3. Qoniqish – kutganidan ham yanada yaxshi natija kelib chiqqanda yoki unga erishganda his qiladigan tuyg'udir. Misollar: 눈에 차다(ko'zi to'ymoq);

가슴이뿌듯하다(ko'ngli to'lmoq); 양이차다(oshqozoni to'lmoq);
등따습고배부르다(qorni to'ymoq); 배를두드리다(qorniga urmoq).

4. Taassurot – kuchli ta'sirlanish olganda uning ichida yashirin energiyani yuzaga chiqarish orqali “Endi shijoat bilan yashayman” degan qarorni keltirib chiqara oladigan kuchli hissiyotdir¹⁷. Misollar: 가슴을올리다(ko'nglini ko'tarmoq); 가슴에파고들다(ko'ngli ko'tarilmoq); 가슴을적시다(ko'nglini namlantirmoq); 가슴이떨리다(qalbi titramoq); 가슴이뜨거워지다(ko'ngli isimoq); 가슴이짱하다(yuragi jiz qilmoq); 가슴이울렁거리다(yuragi tez urmoq); 가슴이몽클하다(ko'ngli to'lmoq); 가슴에와닿다(ko'ngliga tegib ketmoq); 가슴이훈훈해지다(ko'ngli qizimoq); 눈물이나다(ko'z yoshlari chiqmoq); 심금을올리다(ko'nglini yig'latmoq); 콧날이짱하다(burni jiz qilmoq); 코끝이짱하다(burun uchi jiz qilmoq); 눈시울이맵다(ko'z qarashi achchiq); 눈시울을붉히다(ko'zini yorishtirmoq); 눈시울이시큰해지다(ko'zlari quvonmoq); 눈시울이뜨거워지다(ko'z qarashi qizimoq); 콧날이시큰해지다(burni quvonmoq) .
5. Xotirjamlik – qandaydir xatar yoki dardni boshidan o'tkazgandan so'ng qalban his qiladigan tuyg'udir. Hayajon kamayib, yo'qolib borishi davrida xotirjamlik yuzaga keladi. Misollar: 다리를펴고자다(oyog'ini cho'zib uxlamoq); 다리를뺨고자다(oyog'ini cho'zib yotmoq); 바람이자다(shamol uxlamoq); 기를펴다(kerishmoq); 어깨를펴다(yelkasini kerishmoq); 두다리를쪽뺨다(ikki oyog'ini cho'zib yotmoq); 허리를펴다(belini ochmoq); 뺨속이편하다(qorni xotirjam bo'lmoq); 얼굴이펴지다(yuzi yorishmoq); 쓸개가펴지다(oshqozoni yorilmoq); 가슴이후련해지다(ko'ngli xotirjam bo'lmoq); 속이뚫리다(ko'ngli teshilmoq); 가슴이열리다(ko'ngli ochilmoq); 체증이뚫리다(ichi teshilmoq); 속이풀리다(ichi bo'shamoq); 속/가슴이트이다(qalbi qizimoq); 속/가슴이시원하다(ko'ngliga yoqimli bo'lmoq); 십년묵은체증이내려가다(10 yil qotib qolgan ichi tushmoq); 개호랑이가물어간것만큼시원하다(yo'lbars tishlaganday yoqimli).
6. O'ziga ishonch – bir shaxsda o'ziga nisbatan fikri paydo bo'lishida his qiladigan tuyg'udir. Omadga erishayotgan paytda ruhan to'yinganlik asosida

¹⁷김정일. «아하프로이드» -푸른솔, 1997. 27.쪽.

vujudga keladi. O'ziga ishonch tuyg'usi ko'tarilgani sari kayfiyat ham yaxshilanib, ko'ngil ham xotirjam bo'ladi. Misollar: 어깨가으쓱해지다(yelkasi uchmoq); 어깨가으쓱거리다(yelkasi uchmoq); 어깨가올리다(yelkasi ko'tarilmoq); 가슴을펴다(ko'nglini ochmoq); 어깨가가볍다 (yelksi yengillashmoq); 머리가가볍다(boshi yengillashmoq); 마음이가볍다(ko'ngli yengillashmoq); 발걸음이가볍다(qadami yengil); 발길이갑볍다(oyoq izi yengil).

7. Umid – dunyoda amlaga oshadigan hamma ishonch bo'lib, amalga oshirishda suyanchiq bo'ladigan mavhum kuchdir ¹⁸ . Misollar: 가슴이부풀다(ko'ngli umidga to'lmoq); 가슴이벽차오르다(ko'ngli to'lmoq); 빛이보이다(yorug'lik ko'rinmoq); 서광이비치다(shafaq yorishmoq); 고동을치다(dardni yengmoq).

Quvonch va shodlik kayfiyat ko'tarilgan paytda tabassum, qiyqirish, raqs, qo'shiq kabilar bilan ifodalanadi. Taassurot, xotirjamlik, o'ziga ishonch, qoniqish kabituyg'ularning umumiy ma'nosi ma'mnuniyatlikni his qilishdir. Ma'mnuniyatning imkoniyatini his qilgan soniyada quvonchni ham his qilish mumkin. Quvnoqlik, xursandchilik, ruhlanish kabi ijobiy kechinmalar odamning ijodiy faoliyatini oshiradi, uni yaratuvchilik, ijodkorlikka yetaklaydi, o'z qudratiga ishonchini oshiradi. O'z navbatida odamda yaratuvchilik faoliyati uning ijobiy tuyg'ularini rivojlantiradi va unda yangi mazmundagi tuyg'ularning vujudga kelishiga xizmat qiladi. Natijada odamning mehnat qobiliyati oshadi, mehnatning unumdorligi kuchayadi. Bu narsa ayniqsa ilmiy va badiiy ijod jarayonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodiy faoliyatni kuchaytirish nuqtai nazaridan ijobiy hislar "uchqun" yoki "olov" sifatida xizmat qiladi. Inson faoliyatining oddiy yoki murakkabligi bilan bog'liq holda uning kechinmalari organizmning tashqi qiyofasida aks etadi. Har qanday odamdagi tashqi ko'rinish uning xursand, xafa, g'azab yoki qo'rqinch holatini anglatadi. Ikkinchidan, shaxsdagi emotsional holatlar uning ichki a'zolari faoliyatida ham o'zgarish yuzaga keltiradi. Ijobiy

¹⁸Menninger Karl.A. "Love and hateful". - Beacheo, 1996. P.35.

tuyg'ular vaqtida nafas olish tezlashadi, yoqimsiz tuyg'ular vaqtida aksincha, nafas olish pasayadi¹⁹.

G'amginlik – sevgi, yoqtirmaslik, jahl, qo'rquv kabi tuyg'ular bilan aloqadordir. G'amginlik amalga oshmagan kuchli zarbaga uchraganda, qo'rquv orqali vujudga keladi²⁰.

G'amginlikda azob, umidsizlik, yolg'izlik kabi iboralar mavjud.

1. Azob – asosiy tuyg'ularni o'z ichiga olib, bular bosim, xavotir, qo'rquv kabi hislarni o'ziga qamrab olgan tuyg'udir. Yana shuni aytish mumkinki, azob bu – yoqimsiz tuyg'udir²¹. Biz g'amni his qilgan paytda shubhasiz azobni ham his qilamiz.

G'amginlik– xursandchilikdan ko'ra aql va qalbdagi hayajonni yanada kuchaytirib, azobni his qildiradi. Azob ruhiyatga qayg'uni olib keladi va tanaga zarar keltiradigan tuyg'udir. G'amginlikni osonlikcha ko'rsatib beradigan ifoda bu–ko'z yoshlardir. Qalbning chuqur yaralari bo'lmish zarba, ayriliq, sevgi uqubati, ishsizlik, o'lim kabi tushkun holatlarda ko'z yoshlar o'z – o'zidan paydo bo'ladi. Ovoz chiqarib yig'lash his-tuyg'ularning asosini ko'rsatib beradigan, duch kelgan holatni tashqariga bildiradigan qo'shimcha vositadir²². Misollar: 눈물을삼기다(ko'z yoshini yutmoq); 피눈물이나다(qonli ko'z yoshlari oqmoq); 눈물이나다(ko'z yosh to'kmoq); 눈물이핑돌다(ko'z yoshlari oqib tushmoq); 눈물이앞을가리다(ko'z yoshlari oldini to'smoq); 어깨를둘써거리다(yelkasini uchirmoq); 눈이짓무르다(ko'zi yallig'lanmoq); 눈시울을적시다(ko'zi namlanmoq); 창자를적시다(ichaklarini ho'l qilib yubormoq); 목이잠기다(tomog'i yopilmoq); 목이막히다(tomog'i tiqilib qolmoq); 목을놓다(bo'yniga qo'ymoq); 목놓아올다(ho'ngrab yig'lamoq); 목이메이다(tomog'i yopilmoq); 땅을치다(yerni mushtlamoq); 눈것이맵다(ko'z qarashi achchiq); 가슴이찢어지다(ko'ngli yirtilmoq); 간장이찢어지다(jigari yirtilmoq); 창자가끊어지다(ichagi uzilmoq); 가슴에대못을박다(qalbiga katta mix qoqmoq);

¹⁹E.G'oziyev. "Psixologiya". –Toshkent,2000. B.133.

²⁰김정송. "통징심리". - 중앙적성출판사, 1997. 43.쪽.

²¹이남표. "고통과쾌락". -서울,1995. 67.쪽.

²²김기홍. "감정개념의정의".-한국의국어대학교, 1993.89.쪽.

가슴에못을치다(qalbiga mix urmoq); 가슴에구멍이나다(ko'nglida teshik paydo bo'lmoq); 가슴에구멍이뚫리다(qalbida teshik teshmoq); 가슴을도려내다(ko'nglini aylantirib kesmoq); 창자를도려내다(ichagini aylantirib kesmoq); 가슴이답답하다(yuragi siqilib ketmoq); 가슴이막히다(yuragi to'xtab qolmoq); 가슴이터지다(yuragi yorilib ketmoq); 애가터지다(ichagi yorilib ketmoq); 가슴이저리다(yuragi jizillamoq); 가슴이무너지다(yuragi tushib ketmoq); 가슴이내려앉다(ko'ngli ozor chekmoq); 가슴을짓누르다(yuragini ezmoq); 가슴에멍이들다(yuragiga tegmoq); 가슴을찌르다(yuragiga tegmoq); 가슴이쓰리다(yuragi zir etmoq); 간장이썩다(jigari aynimoq); 심장이상하다(yuragi ozor chekmoq); 속이상하다(ichi og'rimoq).

2. Umidsizlik – qandaydir umid yoki maqsadga harakat qilayotganda omadsizlikka duch kelganda hamma narsa qadsiz bo'lib ko'rinayotgan ruhiy holat bo'lib, ko'rinayotgan ruhiy holatda insoniyat o'zi olgan uqubat va to'qnashuvga berilib ketadi. Umidsizlik holatida ichki tuyg'ular zarba va qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Qalb ichidan “Menda juda ham yomon ish yuzaga keldi, lekin men buni xohlamayman”, degan ichki ovoz keladi. Misollar: 가슴이무겁다(yuragi og'irlashmoq); 하늘이노랗다(osmon sarg'aymoq); 하늘이캄캄하다(osmon qorong'ulashmoq); 역장이무너지다(ichagi tushib ketmoq); 풀이죽다(maysa o'lmoq); 풀이겪이다(maysa sinmoq); 맥이빠지다(tomiri uzilmoq); 기가죽다(ruhiyati tushib ketmoq); 기가겪이다(ruhiyati sinmoq); 고개를떨구다(yelkasini bukmoq); 고개를숙이다(bo'ynini egmoq); 하늘이꺼지는것같다(osmon o'chganday); 눈앞이아뜩하다(ko'z oldi qorong'ulashmoq); 눈앞이캄캄하다(ko'z oldi qorong'ulashmoq); 어깨가무겁다(yelkasi og'irlashmoq); 하늘이무너지다(osmon uzilib tushmoq); 한숨을짓다(xo'rsinmoq); 한숨을취다(xo'rsinmoq); 한숨을내쉬다(chuqur nafas olmoq); 어깨가처지다(yelkasi tortishmoq); 어깨가늘어지다(yelkasi kengayib ketmoq); 어깨가움츠러들다 (yelkasi uchmoq).

3. Yolg'izlik – amerikalik psixolog Georgiya “Yolg'izlik bu – dunyoda eng qo'rqinchli azobdir”, deydi²³.

Yangi odamlar bilan ko'p hollarda muloqotga kirisha olmaydigan odam yoki sevgan insonidan ayrilgan odamlar tez – tez o'zlarida yolg'izlikni his qiladi. G'amginlikning umumiy tarafi shundaki, yoqimsizliklar, ya'ni hayotda yuzaga kelishni xohlamaydigan yomon vaziyatlardan zarbaga uchraydigan tuyg'udir. Misollar: 집도절도없다(uy ham, umidi ham yo'q); 아내죽은홀아비(rafiqasi o'lgan erkak); 짝잃은기러기(juftini yo'qotgan o'rdak); 까마귀밥이되다(qarg'a yemishi bo'lmoq); 태백산갈까마귀(Tebeksan tog'i qarg'asi); 계발물어던지듯(qisqichbaqa oyog'ini tishlab otganday); 그날에판꽃이다(soyada sotilgan gul); 백옥이진토에묻혔다(qamoq yerga ko'mildi); 형산의백옥이흙속에묻혔다(tog'dagi qamoq yer ostiga ko'milmoq).

Shunday qilib, hislar inson hayotining mazmunini boyitadi. Emotsional kechinmalari oz va kuchsiz bo'lgan kishilar quruq, mayda gap kishilar bo'lib qoladilar, o'z faoliyatlarida va o'zlarining ayrim xatti-harakatlarida formalist bo'lib qoladilar. Hislar odam faoliyatining hamma turlarida katta rol o'ynaydi, o'yinlarni, o'qish va o'rganishni hamda mehnatni jonlantiradi va aktivlashtiradi. Hislar zaif bo'lganida odamning faoliyati bo'shashib ketadi, ya'ni odam lanj bo'lib qoladi.

Ijobiy hislar, masalan, xursandchilik, ruhlanish bizning hayotiy, ijodiy faoliyatimizni oshiradi. Ijobiy hislar g'ayratimizni, mehnat qobiliyatimizni oshiradi. Ijobiy emotsional holatda ishlayotgan kishining mehnati sermahsul bo'ladi va kishini kamroq charchatadi. Aksincha, salbiy hislarning ko'pi hayotiy, ishchanlik faoliyatimizni pasaytirib yuboradi. Masalan, xavotir, g'amginlik, tashvish, ma'yuslik, o'z kuchimizga ishonmaslik hislari mana shunday salbiy hislardir.

So'zning oxirida shuni ta'kidlashimiz joizki, inson o'z ichki his-tuyg'ularini yuz ifodalari, o'z harakatlari orqali tashqi muhitga, atrofidagi odamlarga namoyon

²³이어령. «문장대백과사전».-금성출판사,1997. 27.쪽.

qiladi. Bu his-tuyg'ularning eng asosiy bosqichi bo'lmish xursandchilik va g'amginlik hayotning mazmuniga aylanib qolgan. Chunki g'amginlik bilan xursandchilik bir-biriga bog'lanib ketgan. Ya'ni, xursandchilik ketidan g'amginlik, g'amginlik ketidan xursandchilik keladi. Bu holatlar koreys tili frazeologiyalarining deyarli yarmini egalaydi. Bu iboralarning gapda qo'llanilish misollarini keying qismlarda ko'rib chiqamiz.

2-bob. “Xursandchilik” va “G'amginlik” frazeologizmlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari, ularning o'zbek tilidagi muqobili

2.1. “Xursandchilik” iboralarning somatik yo'nalish bilan ifodalanish nazariyasi va ularning xususiyatlari

Inson hayotida ko'pdan ko'p qo'llaniladigan xursandchilik ifodasidagi iboralar orqali quvonchning borliqdagi nazariyalari bir-biriga yaqin turadi. Xursandchilik ifodasining tildagi o'ziga xos xususiyati nimadaligi va koreys xalqi xursandchilikni qanday anglab yetishini nazariy metaforalar orqali ko'rib chiqamiz.

Til hayotida foydalaniladigan so'zlarga qiyoslaydigan ifodalar ko'p. Odatda insonlarda eski narsadan yangi narsa yasash qobiliyati bor. Insoniyatning shunday g'ayritabiiy holatini imkoni boricha sodda yoki keng tushuntirib berish maqsadida

metaforadan ham foydalaniladi. Metaforaning nazariy asosi koreys xalqining fikri yuzaga kelishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Xursandchilik his-tuyg'ularni ifodalaydigan frazeologiyalar quyidagi 3 metafora asosida vujudga keladi:

I. *Xursandchilik bu – hayotiy kuch.*

1. Xursandchilik bu – to'la-to'kis hayot kuchidir.

a) Xursandchilik bu – titroq;

b) Xursandchilik bu – iliqlik;

c) Xursandchilik bu – umrni uzaytirish.

2. Xursandchilik bu – muloyimlashgan hayotiy kuchdir.

a) Xursandchilik bu – xotirjamlik;

b) Xursandchilik bu – yoqimlilik.

3. Xursandchilik bu – ko'tarilgan hayotiy kuchdir.

a) Xursandchilik bu –mamnuniyatlik;

b) Xursandchilik bu – yengillik.

II. *Xursandchilikbu – bayram.*

a) Xursandchilik bu – tabassum;

b) Xursandchilik bu – raqs va qo'shiq;

c) Xursandchilik bu – to'la-to'kislik.

III. *Xursandchilikbu – umid.*

a) Xursandchilik bu – kengayish;

b) Xursandchilikbu – yorug'lik;

c) Xursandchilik bu – shijoat.

“Xursandchilik” degan yoqimli tuyg'uni yuqorida keltirilgan iboraviy metaforalar ma'nolarni orqali aniq tushunib yetish mumkin. Shuningdek, koreys xalqining quvonch tuyg'usini qanday holatlarda his qilishini anglab yetish mumkin²⁴.

²⁴Lakoff. “What categories revel about the mind?” The University of Chicago press.이기우웁김. “인지의미론”. 한국문화사, 1992. 36.쪽.

I. *Xursandchilikbu – to'la-to'kis hayot kuchidir.*

Xursandchilikning xususiyati shundaki, u hayotga kuch bag'ishlaydigan ilohiy kuchdir. Bu "Ta'sirlanish" degan tuyg'u bilan bog'liqdir. Inson ta'sirlansa, borliq kuchi to'qnash kelib hayajon va titroqni his qiladi. Sevgi yoki ta'sirlanish kabi tuyg'ular yurakdan his qilinadigan tuyg'ular bo'lib, shaxsning borliqdagi hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Xursandchilikning bir qismi bo'lmish "ta'sirlanish" qalbni harakatga keltiradigan kuch bo'lib va bu tilda "titroq, illiqlik, shukronalik" kabi so'zlarda ifodalanadi. Quyida xursandchilik tuyg'ularini ifodalaydigan iboralarga misolar keltirilgan:

1. Xursandchilik bu – titroq.

- (1) 가슴이떨리다: [yuragi qaltiramoq] – yuragi xapqirib ketmoq; ichidan ta'sirlanib ketmoq.

Misol: 한강물뒤집혀용솟음칠그날이다가온감격에가슴이떨린다²⁵.

Xangan suvining orqa tarafidan ko'tarilib kelgan o'sha kundan ta'sirlanib, yuragim xapqirib ketdi.

- (2) 심금/ 가슴을올리다: [yurakni ta'sirlantirmoq] – qalbni ta'sirlantirmoq– tashqaridan qandaydir ta'sir olib ko'nglida tuyg'u paydo bo'lishi.

Misol: 그부인이임중할때에한만고에심금을올리는유언으로만인의입에곧잘오르고있다²⁶.

Ayolni xurmat qiladigan bir gap qadimdan qalbni ta'sirlantiradigan vasiyatli so'z sifatida og'izdan og'izga yetib kelmoqda.

- (3) 가슴이찡하다: [yuragi jizzilamoq] – ta'sirlanmoq.

- (4) 코끝이찡하다/ 콧날이찡하다: [burni uchi jizzilamoq] – ta'sirlanib ketmoq.

Misol: 쏟아지는공폭탄속에서도의연한모성애우리는/ 코끝이찡해왔어요²⁷.

²⁵문화일보, 2000.6.15. 쪽.

²⁶조선일보. 이규태, 1992.7.16. 8. 쪽

²⁷현대시. 박덕규. «이웃황태자부처가우리마을에», 1992. 23. 쪽.

Otilayotgan bombalar orasidan ham kuchli onaning mehridan bizning yuragimiz ta'sirlanib ketdi.

(5) 가슴에와닿다/ 가슴에파고들다: [yuragiga tegib ketmoq] / [yuragini qazib olmoq] – qalbni teshib yuboradigan darajada; qalbgga tegib ketadigan darajada taassurot uyg'otmoq, ta'sirlanmoq.

(6) 눈시울이시큰해지다/ 콧날이시큰해지다: [ko'z qiri jimirlamoq]/ [burni uchi jimirlamoq] – ko'z yosh chiqib ketadigan darajada ta'sirlanmoq.

(1) misoldagi 가슴이떨리다 iborasida hayotiy kuchning harakati orqali hayotga nisbatan ishtiyoq uyg'onish ma'nosi yotadi. (2) 가슴을올리다 iborasida tuyg'u tashqaridagi ta'sir orqali nozik harakatga keltiradigan qalbni '거문고의떨림'ya'ni, "Komungoning titrashi"²⁸ga qiyoslagan holatda hisni qalbda uyg'otish ma'nosida qo'llanilgan. (3,4) 가슴이짙하다/ 코끝이짙하다 iboralarida "qalbi to'lib ketganidan bir marta titramoq" kabi ma'noda tuyg'uni ifoda qiladi. Ya'ni, yuqorida keltirib o'tilgan frazeologiyalarni jismoniy tajribalardan vujudga kelgan birikma deb ham atasak bo'ladi.

2. Xursandchilikbu – iliqlik.

Jonli mavjudotlarning barchasi iliq va tinch joyda yaxshi unib o'sadi. Bu xursandchilikning "iliqlik va yengillik"dagi ichki ma'nosi bilan bog'liq tushunchadir.

(7) 가슴이훈훈해지다: [ko'ngli yorishmoq] – qalbi yumshab, erib ketadign darajada iliq taassurot olmoq.

(8) 가슴이뜨거워지다: [yuragi qizib ketmoq] – hayajonlanmoq; juda ham kuchli hayajonlanmoq va katta ta'sir olmoq.

Misol: 검푸른하늘을향해가지를톡톡뻗고있는고목을보면/ 내가슴은이상하게뜨거워오니²⁹.

²⁸ Komungo – koreys milliy cholg'u asbobi.

²⁹ 현대시. 이시영. «모닥불», 1990. 37.쪽.

Ko'm-ko'k osmonga qarab bo'yin cho'zib turgan quruq daraxt shoxlariga tikilib tursam agar/ Negadir yuragimga o'zgacha hayajon tushar.

(9) 눈시울이 맵다: [ko'z qiri/ qarashi achchiq] – kuchli ta'sirlanmoq.

(10) 눈시울이 뜨거워지다: [ko'z qiri/ qarashi qizib ketmoq] – ko'z yoshlari chiqib ketadigan darajada qattiq ta'sirlanmoq.

(11) 눈시울이 붉히다: [ko'z qiri/qarashini qizartirib yubormoq] – qattiq ta'sirlantirmoq.

(7) 가슴이 훈훈해지다 iborasi qalbni yumshatib, eritib yuboradigan darajada iliqlikni his qilganda yuzaga kelgan birikmadir. (8) 가슴이 뜨거워지다 iborasi qattiq sevilib va g'amxo'rlikni ko'rganda minnatdorchilik sifatida qalbida uyg'ongan tuyg'uni ifodalashdagi birikmadir. Bu yerda “yurak” xursandchilikni anglab yetadigan, asosiy ichki tuyg'uni his qildiradigan vazifani o'tayapti. (9) 눈물이 맵다 iborasida ta'sirlanganidan ko'tarilib ketgan harorat achchiq ta'mga qiyoslangan. (10) 눈시울이 뜨거워지다 birikmasida ta'sirlanganidan ko'z yoshlari to'kilganda yuzining harorati ko'tarilib ketganday “눈시울이 뜨겁다” iborasi bilan ifodalanadi. (11) 눈시울이 붉히다 iborasida esa xursand bo'lganida yoki qattiq ta'sirlanganda o'zi bilmagan holda ko'zi issib ketib ko'z yoshi chiqib ketishi yoki burni jimirlab ketish holatlarida qo'llaniladi.

3. Xursandchilikbu – hayajon namligining oshishi.

Hamma jonli mavjudotda hayajon bo'lib, faol hayotiy kuchda hayajon ko'tarilishi bilan bog'liqdir. Bu hayajon ta'sirlanishdan yuzaga kelib, leksikologiya bilan yaxshi munosabatga kirishadi. Qalb ichida chuqur qoniqish hissi yurakka xohish berib ko'ngilni harakatga keltiradi va buning natijasida ruhiy hayajonni his qiladi. Bunday holatni hissiy ifoda yoki tashqi o'zgarishlar desa ham bo'ladi.

(12) 가슴을 적시다: [ko'nglini namlantirmoq] – hayajonlantirmoq.

Misol: 지나던 발길 절로 멈추어/ 한줄기 눈물 가슴을 적신다³⁰.

Bosib kelgan qadamimdan to'xtab qoldim. Yum – yum oqayotgan ko'z yoshlar hayajonlantirar yuragim.

(13) 가슴이 울렁거리다: [yurak urmoq] – yurak tez – tez urmoq.

(12) - (13) frazeologiyalardagi “적시다”-namlantirmoq, va “울렁거리다”- urmoq so'zlari qaysidir jihatdan suv bilan aloqadorlik jihatlari bor. Ya'ni, yurak xursandchilikni o'z ichiga olganligi bilan qiyoslangan bo'lib, xursandchilik tuyg'ulari qolibga solib tasvirlangan.

II. Xursandchilik bu – muloyimlashgan hayotiy kuchdir.

Xursandchilik bizni muloyimlashtirib xotirjamlashtiradi. Xursandchilik norozilik, noqulaylik, hayajonsiz holatdan qutulishning asosiy yo'lidir. Buning ichki ma'noviy jihati “xotirjamlik, yoqimlilik” tushunchalari bilan aloqadordir.

1. Xursandchilik bu – xotirjamlik.

Agar yetishmovchiliklar qondirilsa, xavotir yo'qolib tanadagi muskullar ham yengil tortib, ko'ngil ham xotirjamlikni his qiladi.

(14) 두다리를쭉뻗는다/ 다리를뻗고자다/ 다리를펴고자다: [ikki oyog'ini uzatib yotmoq] – havotir yoki tashvishi yo'qolib, ko'ngli xotirjamlashmoq.

(15) 바람이차다: [shamol uxlamoq/tinchimoq] – ko'ngil xotirjam bo'lmoq.

(16) 뱃속이편하다: [qorinning ichi xotirjam bo'lmoq] – xotirjam bo'lmoq.

(17) 허리를펴다: [rostlanmoq] – og'ir qiyinchilikni boshidan o'tkazgandan so'ng xotirjamlik bilan hayot kechirmoq.

(18) 얼굴이펴지다: [yuzi yorug'lashmoq] – tashvish va xavotiri yo'qolmoq.

(19) 어깨/기를펴다: [yelkasini kerishmoq] – azob beradigan kayfiyatda bo'lmasdan ko'ngli yengil tortmoq.

³⁰현대시. 김광균. «조화». -서울, 1999.58.쪽.

(14-19) frazeologiyalarda yuz, yelka, bel, oyoq kabilarda bukchayish yoki siqilish holatlari tarqalganligi ifodalangan. (14) 두다리를쪽뻐다–iborasining misolida birovlariga zarar bermasa, ko'ngil hotirjam bo'lib va aksincha, birovlariga zarari tegib, foyda topsa ham ko'ngli behuzur bo'ladi, degan koreys xalqining umumiy ruhiyatidan kelib chiqqan maqol orqali yaxshi ta'riflab berilgan. (15) 바람이자다–iborasida g'amginlik yoki qo'rquv tarqalgandan so'ng keladigan xotirjamlik ifodalangan. (19) iborada azobga soladigan kayfiyatni o'ziga olmasdan ko'ngilni yengillashtirish holati berilgan.

2. Xursandchilik bu – yoqimlilik.

Yoqimlilik yomon holat yaxshi tarafga o'zgarganda, hayajon tarqalganda yoki xatarli holatlar tugaganda his qiladigan tuyg'udir. Boshi berk ishlar yechimini topganda, og'ir mas'uliyat hal bo'lgan paytda yoqimlilik tuyg'usini his qilish mumkin.

(20)속/가슴이트이다/가슴이열리다:[ko'ngli ochilmoq] – ko'ngli yorishmoq – qalb ichidan yig'ilib qolgan muammolarning yechimi topilishi.

Misol: 이곳역새발에오르면가슴이확트인다³¹.

Bu dalaga chiqsam, ko'nglim yorishib ketadi.

(21)십년묵은체증이내려가다: [10 yildan beri ushlanib qolgan oshqozon tushib ketdi] – yengillashmoq/ko'ngli yengil tortmoq.

(22)체증이뚫리다/속이뚫리다: [oshqozoni/ichi teshilmoq] – yengil nafas olmoq/yengillashmoq.

Misol: 야당의당외투쟁도이런체증이속시원히뚫리지않는한대처하기가쉽지않을것이다³².

Katta qarshiliklardan so'ng ham bunday yengil nafasda mehmonni kutib olish oson bo'lmasa kerak.

³¹국민일보. – 서울, 2000.10.5.5.쪽

³²조선일보. – 서울, 2000.9.6.7.쪽.

(23) 가슴이 후련하다: [ko'ngli yengillashmoq] – ko'ngli xotirjam bo'lmoq yoki juda ham mamnun bo'lmoq.

(24) 속이 시원하다/가슴이 시원하다: [ichi/ko'ngli yengillashmoq] – o'zini yengil his qilmoq.

Misol: 일이 힘들어서 스트레스를 받을 때 노래 몇 곡을 부르거나 가면 가슴이 시원하다³³.

Ish juda ham qiyinligidan stress ko'p olgan paytda bir nechta qo'shiqni xirgoyi qilsam ko'nglim xotirjam bo'ladi.

(25) 개호랑이가 물어간 것만큼 시원하다: [kuchuk yo'lbarsni tishlab olganday yoqimli] – ko'nglida g'arazgo'yiligi yo'qolib kayfiyati yengillashmoq/ko'ngli ko'tarilmoq.

(22) frazeologiyada '속'ya'ni, ich-qalb tananing ichki a'zosidir. Qalb yaxshi ko'rinmaydigan mavhum tuyg'ularni yorqin ko'rsatib beradi. (23) frazeologiyasida esa yechilmagan muammolarni tana a'zolardan biri bo'lgan oshqozonga qiyoslaydi. Ya'ni, muammo yechilgandan so'ng oshqozondan dard yo'qolganday ko'ngil ham yengil tortadi.

III. Xursandchilik bu – ko'tarinki hayotiy kuchdir.

1. Xursandchilik bu – mamnuniyatdir.

Xursandchilik kayfiyatni ko'taradi. Kayfiyat ko'tarilganda mamnuniyatlik ham yuzaga keladi.

(26) 어깨가 으쓱해지다/으쓱거리다: [yelkasi uchmoq] – mag'rurlangandan maqtangisi keladi.

(27) 어깨가 올라가다: [yelkasi ko'tarilmoq] – maqto'vni eshitganidan kayfiyati ko'tarilib ketmoq.

Misol: 비단옷을 입으면 어깨가 올라간다³⁴.

³³한겨레. – 서울, 2000.9.23. 8.쪽.

³⁴한국속담. – 서울, 2005. 99.쪽.

Ipak ko'ylak kiysam ko'nglim ko'tarilib ketadi.

(28)가슴이펴다: [ko'nglini ochmoq] – o'ziga ishonchni ortirmoq.

Misol: 썩썩하고당당하게가슴을펴고그것도밤늦게수많은별들을혼자안은채³⁵.

Tunda minglab yulduzlarni yolg'iz sanagancha, shijoat va mag'rurlik bilan ko'nglimni ocharman.

(29)어깨가펴다: [kerishmoq] - og'ir bosimni o'ziga olmasdan ko'ngilni erkin qo'ymoq.

(26-27) frazeologiyalarda o'ziga ishongan odam yelkasini bukmasdanto'g'ri turib boshqa odamlarga nisbatdan mag'rurligi ko'zga tez tashlanadi. (28-29) frazeologiyalarda ham mag'rurlikdan o'ziga ishonchi ortgani namoyon bo'lgan.

2. Xursandchilik bu – yengillik.

Xursandchilik qalbni yengil qilib beradi. Bu kayfiyat hamma insonlarda mavjudligi sababli og'ir mas'uliyat va munosabatni bog'lashda ham katta rol o'ynaydi. Koreys xalqi:“Og'ir mas'uliyatdan qutulgandagina ko'ngil hotirjam bo'lib, yengillashadi”, degan naqlni qalb va miyalariga singdirib olishgan. Bu naql jamiyatning madaniy hayotidan bir namunadir.

(30)머리/어깨가가볍다: [bosh/yelka yengillashmoq] – qushday yengil his qilmoq – og'ir mas'uliyatdan qutulib ko'ngil yengil tortmoq.

Misol: 피를한번군고에바르고혹은하늘을날아가서조국에돌아가노닌다면가슴이시원하겠다³⁶.

Qonim dushman tarafda oqsada, osmonlarda uchib vatanimga qaytsam agar, o'zimni qushday yengil his qilarman.

(31)마음이가볍다: [qalb yengillashmoq] – yengil his qilmoq.

(32)발거음/발길이가볍다:[qadami yengil] –qalbida qandaydir mas'uliyat yoki to'siq bo'lmasdan yengillashmoq.

³⁵현대시. 정의홍. «그날밤의일기», 1990. 68.쪽.

³⁶이규태, 1990.8.8. 44.쪽.

Misol: 올해는보너스를두둑하게받아지난해보다고향을찾는발길이가뻗다³⁷.

Bu yilgi bonus ko'p bo'lgani uchun o'tgan yilgidan ko'ra yurtimizga oyog'i yengil bo'lib keldi.

Yuqorida keltirilgan (32) iborada ko'ngilda mas'uliyat mavjud bo'lmagani sababli qalbi yengillashish ma'nosida qo'llanilib, bu yerda asosiy ma'no aniqlovchi "yengil" so'zida birlashgan. Bunday yoqimlilik inson tana va qalbini yorishtirib yengillashtiradi.

IV. *Xursandchilikbu – bayram.*

Xursandchilik ma'naviy jihatdan ortirilgan tajribalarni "bayram" deb nomlangan so'z birikmasi orqali ifodalaydi. Bu ibora xursandchilik tuyg'usi paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Xursandchilik yaxshi holatdan paydo bo'ladigan tuyg'u desak ham bo'ladi. Bayram ham aynan yaxshi ishlar yuzaga kelgan vaqtning o'zida vujudga keladigan tadbirligi bois xursandchilik bilan aloqadordir. Bayram davrasida quvonchli tabassum, raqs va qo'shiq orqali avjga chiqadi. Xursandchilikni bayram bilan qiyoslashning asosiy sababi, bu ikki so'zda "kulgu, raqs, hush kayfiyatli qo'shiq" degan ifodalarning bir – biriga mos kelganligidir.

1. Xursandchilik bu – tabassum.

Tabassum bu – quvonch, qiziqish va xohish orqali biror natijaga erishganda his qilinadigan tuyg'udir. Insonning umidi amalga oshganda xursand bo'lganidan odatiy tabassum va raqs o'z-o'zidan uyg'onadi. Tabassum yuz ifodasidagi o'zgarish yoki ovoz orqali qalbdan chiqayotgan vaziyatni bir butun qilib tashqariga ko'rsatib, qalbni larzaga keltirishdan tashqari har xil tuyg'ularni ifodalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Inson o'z xursandchiligini tashqariga bildirganda yuzida albatta tabassum paydo bo'ladi.

(33) 입이 찢어지다: [og'zi yirtilmoq] – xursandligidan o'zini qo'yarga joy topolmaslik – qulog'i osmonda.

³⁷문화일보, 1999.9.22. 4.쪽.

(34) 입을 다물지 못하다: [og'izni yopa olmaslik] – quvonchi ichiga sig'maslik/
quvonchini ichiga yashira olmaslik.

Misol: 금메달이 확정되는 순간 비너스는 라켓을 공중에 던지고 양팔을 높이 치켜든 채

관중들의 환호에 답했다고 기쁨으로 벌어진 입을 다물지 못했다.³⁸

Oltin medal e'lon qilingan onda Venus raketkani uloqtirib, ikki qo'lini yuqoriga ko'targancha tomoshabinlar quvonchiga javob qaytarar, quvonchi ichiga sig'masdi.

(35) 입이 함박꽃같이 벌어지다: [og'zi salla (pion) guliday ochilmoq] – kayfiyat yaxshiligidan ochiq katta kulmoq.

(36) 입이 함박하다: [og'zi tog'oraday ochilmoq] – og'zi lang ochilib qolmoq - ko'tarinki kayfiyatda bo'lgani uchun og'zi tog'oraday bo'lib katta ochilmoq.

(37) 손뼉을 치다: [kaftni urmoq] – xursand bo'lganidan chapak chalmoq.

Misol: 가벼우나 슬픈 음악/ 관객이 손뼉을 치며 즐거워 할 때/ 곡에 사의 가슴엔/
싸늘한 바람이 스쳐 간다.³⁹

Sokin, g'amgin musiqa/ Tomoshabin xursandchilik ila chapak chalgan paytda/
Ijrochi qalbiga/ Salqin shamol tegib o'tar.

Tabassum cheksiz xursandchilikni his qilganda va jismoniy tomondan bog'liqlik jihati borligi bois kayfiyat yaxshilanganda yuzdagi tabassum orqali tashqi muhitga namoyon bo'ladi. (33-34) iboralarida xursandchilikni yashira olmasdan og'zi ochilib qolgan holati berilgan. (35) frazeologiyasida kayfiyat yaxshiligidan yorqin va quvonch ila kulayotgan ko'rinish sallagulga qiyoslangan. Boshqa gullarga qaraganda katta yorqin gullaydigan gul sallagul bo'lib, unga qiyoslanganligining sababi xursandchilikning cheki yo'qligidan darak beradi. (36) iborasida ham xursandchilikdan og'iz katta ochiladigan ko'rinish "Xamji", ya'ni, Koreya milliy tog'orasiga qiyoslangan. Bu tog'orani faqatgina Koreya madaniyatida uchratishimiz mumkin. Bundan shuni anglab yetish mumkinki, bunday qiyoslash orqali madaniy

³⁸ 세계일보, 2000.9.28. 7. 쪽.

³⁹ 현대시. 김규동 «곡에사», 1990.99. 쪽.

muhitni ham yaqin his qilish mumkin. (37) iborasida kayfiyatni ko'taradigan qo'shiqqa ta'sirlanib yoki quvonchli ish yuzaga kelganda qarsak chalib yuborish ma'nosida qo'llanilgan.

Yuqoridagi misollarda tabassum yuz ifodasiga aloqador bo'lgan tanadagi jismoniy harakat orqali paydo bo'ladi. Qandaydir qiziqarli ish yoki holatda ichdan xursandchilik tuyg'usi paydo bo'lib, yuzda tabassum yuzaga keladi. Tabassum boshlang'ich bosqichdan faol natija berib, bu xotirjamlikni vujudga keltirib zaiflashishni qisqartiradi. Tabassum xursandchilikni tarqatadi. Tabassum insonni baxt sari yetaklaydi. Tabassum qilgan odamning atrofidagi odamga ham ta'siri tez bo'ladi. Shuning uchun tabssum kayfiyatning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

(38)배꼽을쥐다:[kindigini mushtlamoq] – kulgudan o'zini to'xtata olmasdan qorniga mushtlaganxa xoxolab kulmoq.

(39)배꼽을잡다: [qornini ushlamoq] – kulgisini to'xtada olmasdan qornini ushlaganxa xoxolab kulmoq,

(40)배꼽을빼다/배꼽이빠지다: [kindigi tushib ketmoq] – ichagi uzulguncha – ichagi uzulib ketadigan darajada qattiq kulmoq.

(41)허리가뚱어지다/ 허리가부러지다: [beli uzilib ketmoq/ bukilib ketmoq] – juda ham kulgili.

(42)허리를잡다: [belini ushlamoq] – kulgidan o'zini to'xtata olmasdan beli bukilib ketib, to'xtovsiz kulmoq.

(43)무릎을치다: [tizzasini urmoq] – juda ham quvonchli ish paydo bo'lganda tizzasiga urib qattiq kulmoq.

Yuqorida keltirilgan frazeologiyalardan shuni bilish mumkinki, inson xursand bo'lgan paytda kindik, qorin, qimirlab ketadigan darajada qattiq kular ekan. Bu kulish ham insondan jismoniy kuch talab qiladi. Inson qanchalik xursand bo'lsa, uning tanasi ham shuncha harakatga kelar ekan.

2. Xursandchilik bu – raqs va oxanrabodir.

Insonning kayfiyati ko'tarilganda qo'shiqni hirgoyi qilish yoki raqsga tushish harakatlari o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Bu tuyg'ular energiyani ko'rsatadigan faol harakatlardan biri bo'lib, insonni ilhomlantirib aktivlashtiradi.

(44) 신이나다: [qiziqishi uyg'onmoq] – yaxshi vaziyat yuzaga kelganda kayfiyati ko'tarilib ketmoq.

(45) 신바람이나다: [ajoyib shamol esmoq] / 뉘이나다: [ruhi chiqmoq] – yaxshi holatdan o'zini uchib ketayotganday his qilmoq – qushday yengil bo'lmoq.

(46) 신명이나다: [ko'tarinkilik paydo bo'lmoq] – qandaydir ishdan qiziqishi uyg'onib kayfiyati ko'tarilmoq.

(47) 어깨가들쩍들쩍하다: [yelkasi ko'tarilib tushmoq] – yelkasi uchmoq – qiziqishi uyg'onmoq.

Misol: 어깨를들쩍이며몸을흔들며/ 에식의춤과노래로빛나던물길⁴⁰.

Yelkasini uchirib, tanasini qimirlatib/ Bayramdagi raqs va qo'shiq kabi yaltirab oqar soy.

(48) 어깨춤이절로나다: [yelkasi o'z-o'zidan uchmoq] – quvonmoq.

(49) 어깨춤추다: [yelkasi raqsga tushmoq] – yelkasini o'ynatmoq.

Misol: 옛장수가위소리에어깨춤을추는구나⁴¹.

Tikuvchi qaychi ovozidan yelkasini o'ynatayotgan ekan.

(50) 휘바람을불다/ 콧노래가나오다/ 콧노래를부르다: [xushtak chalmoq] – kayfiyati ko'tarilmoq, quvonchli voqea yuz bermoq.

(44-46) frazeologiyalarida biror ishdan qiziqishi yoki mehr paydo bo'lib, ko'tarinki kayfiyatga ega bo'ladi. Qalbdagi narsa ko'zga ko'rinmaydi yoki yashirincha turadi. Biroq tashqariga chiqsa odamlarga seziladi va ko'zga tashlanadi. Shuning uchun "chiqmoq" fe'li birgalikda qo'shilib keladi. Yuqoridagi misollar xursandchilik tashqariga chiqadigan mehrni ko'rsatib beradi. Hayajon asosan bo'yinning orqa

⁴⁰현대시. 마중기. “변명”, 1990. 71.쪽.

⁴¹현대시. 신경림. «옛장수가위소리에 뉘마져 빼앗겨», 1990. 73.쪽.

qismidan boshlanadi. Undan so'ng jimirlab yuzni yopib boshni qiyshaytirib yelkaga o'tkazgandan so'ng umurtqani qimirlatadi. Shuning uchun (47-49) frazeologiyalari kabi yelkani uchirib raqsga tushish tuyg'ularni his qildiradi. Koreys xalqining ritmga mos raqsi bu – yelka uchirshdir. Bu harakat hursand bo'lgan paytda o'z-o'zidan chiqadigan yelka uchirish, quvonchning tuyg'ularini ifodalash uchun shaxsiy, shuningdek tananing bir qismidan foydalanib tabiiy harakat hisoblanadi. Bunday yelka uchirish xursandchilikni ifodalashning yana bir vositasidir. (50) iborasi kabi xushtak chalish ham o'z-o'zidan vujudga kelib, quvonch asosida yuzaga keladi.

3. Xursandchilik bu – to'kin –sochinlikdir.

Quvonchli ish yuzaga kelsa inson ba'zida amalga oshirishda har xil odamlarni to'kin – sochinlik bilan mehmon qiladi. Shuning uchun ko'ngilda yetishmovchiligi bo'lmasdan cheksiz mehrlari bilan odamlarni mamnunlantira oladi. Bunday holatdagi xursandchilik asosi mamnuniyat ila his qila oladigan “to'kin – sochinlik” degan ibora bilan ham ifodalanadi.

(51)가슴이뿌듯하다: [ko'ngli to'lmoq] – juda ham mamnunligidan xursand bo'lmoq.

Misol: 그무엇이마음속에뿌듯하도록꼭차는것을느꼈다⁴².

Nimadandir ko'nglim to'lganday mamnuniyatlikni his qildim.

(52)양이차다: [oshqozoni to'lmoq] – yetishmovchiligi to'lib mamnun bo'lmoq.

(53)눈에차다: [ko'zi to'lmoq] – ko'rinadigan narsadan ko'ngli mamnun bo'lmoq.

(54)배를두드리다: [qornini urmoq] – erkinlik va to'kin – sochinlikdan zavqlanmoq.

Yuqoridagi iboralarda “to'lmoq” birikmasi “xursandchilikdan ko'ngli to'lib, qoniqmoq” ma'nosida qo'llanilgan. Katta ta'sirdan xursandchiligi ko'nglidan to'lib

⁴²심훈. «상록수», 1990.33.쪽.

toshishidir. Bu to'lib toshish insonda qoniqish, mamnuniyatlik tuyg'ularini keltirib chiqaradi.

V. *Xursandchilikbu – umid*

Xursandchilikni his qilganda kelajakka ham umid yanada ko'payadi. Umid ham xursandchilikni his qilishda yana bir katta imkoniyatlardan biridir.

1. Xursandchilik bu – kengayish.

Umid harakat darajasini ko'tarib, bu harakatni oxirigacha saqlab qoladigan kuchdir.

(55)가슴이부풀다: [ko'ngli umidga to'lmoq] – orzu – umidlari katta.

(56)가슴이벽차다: [ko'ngli quvonchga to'lmoq] - ko'ngil orzu – umidga to'la

2. Xursandchilik bu - yorug'lik.

Orzu – umid va boshqa narsalardan ko'ngli to'lishi orqali xursandchilikni his qilish mumkin va umidi bor inson hamisha kelajagini yorug' qilishni o'ylaydi. Shuning uchun koreys xalqi umidni “yorug'lik”ka qiyoslaydi. Bu nur insonga kuch bag'ishlaydi va shu kuch orqali inson nimalarnidir qilishni xohlaydi. Bu kuch tong nuri “shafaq” bilan ham ifodalanadi. Kun tong nuri bilan boshlanishi kabi umid ham insonni barkamol qilishda asosiy ustun hisoblanadi.

(57)빛이보이다: [yorug'lik ko'rinmoq] – umid paydo bo'lmoq.

(58)서광이비치다: [shafaq yorishmoq] – umid paydo bo'lmoq.

Yuqorida keltirilgan iboralarda umid asosiy ramziy so'z bo'lib qatnashib kelgan. Bunday umid orqali insoniyat kelajakda o'z quvonchiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, koreys tilida xursandchilik tuyg'usini ifodalaydigan frazeologiyalar somatik so'zlar bilan o'zaro bog'langan holda qo'llanilar ekan. Xursandchilik 15 ta, ya'ni, ko'z, quloq, bosh, og'iz, yelka, qorin, kindik, bel, orqa, oyoq, boldir, ich, yurak, o't pufagi, oshqozon, kabi tana a'zolari bilan ifodalangan. Bu bilan insoniyat quvonchni boshidan to oyog'ining uchigacha butun tanasi bilan his qilishini bilish mumkin. Yuqoridagi frazeologiyalardagi xursandchilikning ma'nosi

“hayotiy kuch, bayram, umid” kabi birikmalar bilan ta’riflanadi. “Xursandchilik bu – hayotiy kuchdir” deb nomlanishida hayajon, jimirlash, iliqlik kabi tuyg’ular ham birgalikda qo’llaniladi. Xursandchilikni ifodalaydigan asosiy tana a’zolaridan biri qalb hisoblanganligi sababli quvonchni ham qalb orqali his qilish tabiiydir. Qalb orqali hamisha insoniyat o’z tuyg’ularini ifodalay oladi. Mammuniyatlik raqs, qo’shiq va tabassum orqali his qilinib, mammuniyatlik vositasida ham cheksiz xursandchilikni his qilish mumkin. Bunday qoniqish insoniyatning yurak, oshqozon va ko’z kabi tana a’zolari orqali ifodalanadi. Umid ham insonni kelajakka yanada katta xursandchiligu – quvonchlarga yetaklaydigan yorqin vosita bo’lib xizmat qiladi. Insoniyat qancha quvonchli hayotni kechirsa, shuncha baxtni his qiladi.

2.2. “G’amginlik” iboralarning somatik yo’nalish bilan ifodalanish nazariyasi va ularning xususiyatlari

G’amginlik insoniyatni ruhan tushkunlik, xotirjamsizlik, noxushlik va boshqa salbiy holatlarni his qildirishga keltirib qo’yadigan tuyg’udir. G’amginlik qiyin va og’ir holatni boshidan o’tkazgandan ko’ngil og’rishida, ko’ngil xotirjam bo’lmaganda, qandaydir umidi amalga oshmaganda, insonning yolg’iz o’zi qolganda, shuningdek, o’zini baxtsiz his qilganda, avvalo inson ko’nglida, so’ng yuzida paydo bo’ladi. Insoniyat g’amginlikni his qilganda aniq qandaydir qiyinchiligi borligini bilish mumkin. G’amginlik quvonchdan ko’ra yurakda hayajonni to’xtovsiz kuchaytirib og’riq beradi. G’amginlikni ifodalaydigan so’z birikmalari quyidagicha bo’ladi:

I. G’amginlik bu – jismoniy harakatning zaiflashishidir.

1. G’amginlik bu – ko’z yosh va yig’idir.
2. G’amginlik bu – oshqozonning zaiflashishidir.
 - a) G’amginlik bu – oshqozonning bo’linishidir;
 - b) G’amginlik bu – oshqozonning kuyishidir;
 - c) G’amginlik bu – oshqozonning chirishidir;
 - d) G’amginlik bu – oshqozonning sanchishidir.

3. G’amginlik bu –“ter, suyak, qon”ning yomonlashishidir.

II. G’amginlik bu – yorug’lik va faollikning yo’qolishidir.

1. G’amginlik bu – og’irlikdir.
2. G’amginlik bu – qorong’ulikdir.
3. G’amginlik bu – yiqilishdir.
4. G’amginlik bu – faollikning zaiflashishidir.

III. G’amginlik bu – juftni yo’qotishdir.

1. G’amginlik bu – yetishmovchilikdir.
2. G’amginlik bu – munosabatning uzulishidir.

I. G’amginlik bu – jismoniy harakatning zaiflashishidir.

Qiyinchilik ruhiyatga g'amginlikni olib kelib, inson tanasiga ham zararli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Koreys xalqi qiyinchilikni ko'p narsalarga qiyoslaydi. Buning sababi insonning o'zi boshidan kechirgan qiyinchiliklarga mos harakat qilish qiyinligi sabablidir. Shuning uchun ruhiy qiyinchilikni jismonan his qiladigan qiyinchilik bilan birga ifodalash mumkin.

1. G'amginlik bu – ko'z yosh va yig'idir.

G'amginlikning asosiy ifoda vositasi bu yig'idir. Qalbdagi chuqur yaraning izi, ajralish, sevgidagi omadsizlik, ishni yo'qotish, o'lim kabi tushkun holatlarda ko'z yosh paydo bo'ladi. Yig'i ko'z yoshi ko'rish a'zosi bilan, yig'i ovozi eshitish a'zosi bilan birlashgan.

(1) 눈물이 핑돌다: [ko'z yoshi to'kilmoq] – xafa bo'lganidan ko'zida yosh paydo bo'lmoq.

Misol: 알지도못하는네조그만목숨을위하여/ 나는한갓뜨거운눈물이핑돌았다⁴³.

Men bilolmaydigan sening ozgina qolgan hayoting uchun/ Men issiq ko'z yoshlarimni to'karman.

(2) 눈시울이 적시다/ 눈물나다: [ko'z yosh chiqmoq] – xafa bo'lmoq.

Misol: 어제는눈시울을적시며/ 말린몬로의생애를/ 텔레비전에서보았다⁴⁴.

Kecha ko'z yoshlarimni to'kkancha, so'lib borayotgan tirik mavjudotni oynai jahonda ko'rarman.

(3) 눈물이 앞을 가리다: [yoshlar ko'z oldini yashirmoq] – ko'p yig'lagandan ko'zlarini ochsada atrofni ko'ra olmaydi.

Misol: 춤곡조가 끝나기 전에 눈물이 앞을 가려서, 밤은 바다가 되고 거문고 줄은 무지개가 됩니다⁴⁵.

⁴³현대시. 박세영. «하랄의용사», 1990.45.쪽.

⁴⁴현대시. 박목월. «사력질», 1990.78.쪽.

⁴⁵현대시. 한용운. «거문고탈때», 1990.79.쪽.

Qo'shiq naqorati tugab borayotganda ko'z yoshlarim ko'zimni to'sar, tunlari dengiz bo'lib komungo torlari kamalak bo'lar.

(4) 눈에 피눈물이다: [ko'zda qonli ko'z yosh oqmoq] – juda ham xafa bo'lganda yoki tushkun holatga tushgandan qonli ko'z yoshlar oqmoq.

(5) 눈갓이 맵다: [ko'zi achimoq] – ko'p yig'laganidan ko'z cheti qizib ketmoq.

(6) 눈이 짓무르다: [ko'zi yallig'lanmoq] – ko'p yig'laganidan ko'zlari xira tortib qolmoq.

(7) 어깨를 들먹이다: [yelkasini qimirlatmoq] – ho'ngrab yig'lamoq.

Misol: 얼굴을 무릎 사이에 박고 어깨를 들먹이며 들길에서 혼자 울었다⁴⁶.

Yuzimni tizzalarim orasiga yashirib olganicha yelkalarimni qimirlatib dalada yolg'iz o'zim ho'ngrab yig'lardim.

(8) 눈물을 삼키다: [ko'z yoshlarini yutmoq] – piqillab yig'lamoq.

(9) 창자를 적시다: [ichaklarini ho'l qilib yubormoq] – xafagarchilikka chiday olish juda ham qiyinligi ma'nosida qo'llaniladi.

(1) iborada xafagarchilik tezda ta'sir qiladi. (3) iborasida g'amginlik darajasi ortgan sari ko'z yoshlar miqdori ham shuncha oshib boradi. Ya'ni xafagarchilik, g'amginlik kabilar kuchaygan sari ko'z yosh miqdori ham ko'payib ketadi. (4) iborasida hayot ramzi bo'lgan “qon” tashqariga chiqadigan darajada juda ham kuchaygan tushkunlik ifodalangan. (5-6) iboralarda qattiq yig'lagandan keyingi holat berilgan. (6) ibora ayniqsa, kimnidir judayam sog'inganda qo'llaniladi. (7) iborada qattiq iztirob chekkandan ichidan og'rib yelkasi qimirlab ketadigan darajada o'kinib yig'lash tasvirlangan. (8) iborasida tushkun kayfiyatni ichiga yutib sabr qilish ifodalangan. Koreys xalqi milliy madaniyatida yig'i g'amginlik tuyg'usini kuchaytirib, ifodalash ko'pligi sababli bu yig'iga sabr qilish iboralarham ancha rivojlangan. (9) iborada faqatgina ko'zlar emas, balki tana ichidagi ichakkacha tushkunlikdan ho'l bo'lib ketgan holat orqali g'amginlik ifodalangan.

⁴⁶한국일보, 2000.5.7. 7.쪽.

- (10) 목이막히다: [tomog'i tiqilib qolmoq] – tushkunligi oshib ketmoq.
- (11) 목이메다/ 목이잠기다: [tomog'i yopilmoq] – g'amginlikdan his-tuyg'ulari to'lib toshib ketmoq.
- (12) 목을놓다/ 목을놓아올다: [bo'g'zidan yig'lamoq] – bo'kirib ho'ngrab yig'lamoq.

Misol: 다시 한번 꺾어보며/ 못오는 옛날을 가슴에 그리고/ 목을 놓고 울어나보자⁴⁷!

Yana bir marta boshdan kechirib ko'raylik/ Qaytib kelmaydigan o'tmishdan ko'glimiz g'ashlanib/ Ho'ngrab yig'lab ko'raylik!

- (13) 땅을치다-[yerni urmoq] – ho'ngrab yig'lamoq.

Insoniyat yo'qotish tuyg'usini his qilganda tomog'iga nimadir tiqilganday og'riqni boshidan kechiradi. (10-11) iboralarida sabr qilgan tuyg'ulari tashqariga tarqalib tomog'iga tiqilib qolganday ifodalangan. (12-13) iboralarida sabr qilish yoki o'zini ushlab tura olmasdan baqirib, ho'ngrab yig'lagan paytda yerni ham tepkilab tashash darajasidagi tushkun holat berilgan. Yig'ida ovoz chiqarish sababli ovoz paychalaridan, tomoq bilan ifodalangan iboralar ham ko'p. Yig'i qiyinchiliklarga bardosh bera olmasdan o'z-o'zidan paydo bo'ladigan holat sifatida ham ifodlanadi.

2. G'amginlik bu – oshqozonning zaiflashishidir.

G'amginlikni oshqozonning zaiflashishiga qiyoslanishiga asosiy sabab shundaki, g'amginlik xotiralari oshqozonning holatidan keltirib chiqarilib solishtirilgan.

a) G'amginlik bu – oshqozonning bo'linishidir.

Insoniyat tasavvur qilish qiyin bo'lgan yo'qotish sababli ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan og'riqni his qiladi. Bunday qalb yarasidan kelib chiqqan og'riq tananing ichki a'zolariga ham ta'sir qilishi sifatida qaraladi. Bunday tana a'zolariga yurak, jigar, ichak, ich, oshqozon kabilar kiradi. Tushkunlik asoratidan olingan ichki og'riq tajribasi qalbgga ham ta'sir qilib yara qoldiradi. Bu yara odatda mix bilan

⁴⁷현대시. 노자. «할미꽃», 1990.43.쪽.

teshilgan iz sifatida ifodalanadi. Og'riqni ta'sir qildiradigan vosita "mix" bo'lib, uning uchi o'tkir va uchli bo'lib og'riqni keltirib chiqaradi. Quyida shunday mix bilan teshik hosil qilingan yoki shu holatdagi azobli iboralar keltirilgan.

- (14) 가슴에못을치다 / 기슴에대못을박다: [ko'ksiga mix qoqmoq] – yuragiga tuz sepmoq – ko'ngliga ozor bermoq.

Misol: 더이상남쪽을따라가서/ 어린내님의가슴에팡팡못을치지는말아다오⁴⁸.

Ortiq janub tomonga orqama orqa bora olmayman/ Mening yoshgina qalbimga tuz sepganlar.

- (15) 가슴에못질하다/ 가슴에대못질하다: [yuragiga mix sanchmoq] – yuragiga og'riqli zarba bermoq.

- (16) 가슴에구멍이뚫리다/ 마음에구멍이뚫리다: [yuragida/ko'nglida teshik teshilmoq] – qalbida yara paydo bo'lmoq – ko'ngli kentik bo'lmoq.

Misol: 어디서비에젖고있을까/ 가슴에구멍뚫린/ 이름모를엄마아빠⁴⁹.

Qayerdandir yomg'irdan ho'l bo'lib kelgan ekan/ Ko'ngli kentik bo'lgan/ Ismini bilmaydigan ota –ona.

- (17) 가슴/창자가미어지다: [yuragi/ichi sanchimoq] – qattiq xafagarchilikdan ko'ngli judayam og'rимоq.

(15-16) iboralaridagi "mix" bilan aloqador frazeologiyalar suhbatdoshga ruhan azob berayotganligidan darak beradi. "Mix"dan ko'ra "katta mix" teshib o'tishi kuchli bo'ladi. Mixning kattaligi ham tushkunlikning kuchayganligini ifodalaydi. Va mixni qoqish uchun og'ir bolg'a bilan urish kerakligini hayolga keltirsa bo'ladi. Ya'ni, juda ham katta zarbaga duch kelganlik ma'nosida qo'llanilgan. (16) iborada mixga qoqilganlik natijasida ko'nglida yara paydo bo'lganidan "G'amginlik bu – o'chmas yara" degan naql kelib chiqqan. (17) iboradagi "sanchilmoq" so'zi tarang bo'lgan qog'oz yoki teriga o'xshash narsalar ajralganidan so'ng teshik paydo

⁴⁸현대시. 정대구. «겨울기도», 1990.71. 쪽.

⁴⁹현대시. 정한모. «원점에서서», 1990.55. 쪽.

bo'lishi bilan taqqoslangan. Yara izi asosan yurak, qalb, ichak kabilarga bo'linadi. Ayniqsa, yuragiga ozor yetdi deb qaraladi.

Bir oila deb hisoblandigan inson munosabatidagi aloqa uzulishi natijasida yuzaga keladigan og'riqni ichki a'zolarining yarmi tushib ketgan odamday his qiladi. Shuning uchun "G'amginlik bu - tana a'zolarining yarmi tushib ketishidir" degan metoforaviy iboradan ham kelib chiqqan. O'z tanasining bir qismiday bo'lib qolgan qadrlı insoni bilan ayrilish kabi azobli tuyg'u insonni sabr qilishga kuch bera olmaydi. Aksincha, ko'ngliga mix qoqilganday ayanchli azob beradi. Yana bu huddi pichoq bilan so'yganday og'riqni bildiradi. Judayam yaqin inson bilan abadiy ajralish sababli tushkunlikdan o'zining ichki a'zolarini tushirib qo'yganday quyidagi iboralar qo'llaniladi.

- (18) 가슴을에다:[yuragini kesmoq] – tushkunlikdan ko'ngli ozor chekmoq.
(19) 가슴을도려내다/ 창자를도려내다: [yurak/ichakni aylantirib kesmoq] – qattiq tushkunlikdan azobga chiday olish qiyin.
(20) 가슴을저미다/에간장을저미다: [yuragini/ jigarini og'ritmoq] – qattiq azob bermoq.

Misol: 아버지가건네주었던조언이무슨뜻이었는데를뒤늦게깨닫고그깊은사랑에가슴을저민다⁵⁰.

Otam bergan maslahatlari qanday ma'noda ekanligini juda ham kech anglab yetganim uchun bu sevgidan qattiq azob chekdim.

- (21) 가슴을허비다: [yuragini og'ritmoq] – tushkunlikdan ko'ngli qattiq og'rinoq.

(18) iborada pichoq kabi o'tkir qurollar bilan yurakni kesganday ko'ngil azob chekishi ifodalangan. (19) iborada qattiq tushkunlikdagi azobni "yurak, ichak" kabi tana a'zolari yulib olganday og'riq ifodalangan. (20) iborasida "yurak,jigar"ni har xil kichik bo'laklarga bo'lganday og'ir azob berish tasvirlangan. Azob kuchaygan sari takrorlanib, davom etib boraveradi. Tushkunlik ko'pincha bir insondan ayrilish

⁵⁰동아일보, 1999.9.18.9.쪽.

oqibatida vujudga keladi. Koreys tilida tushkunlik holati yaqin insoni bilan ayrilgan taqdir tugashi tana ichidagi a'zolarning bo'linib ketishiga qiyoslab ifodalangan.

(22) 가슴/간장/ 애간장이 찢어지다: [yurak/ ichak yirtilmoq] – tushkunlikdan ko'ngli og'rimoq – ko'ngli darz ketmoq.

(23) 창자가 빠지다: [ichagi tushib ketmoq] – qattiq xafagrchilikdan azoblarga sabr qilish qiyin.

b)G'amginlik bu – oshqozonning kuyishidir.

G'amginlikning azobiga chidash juda ham og'ir vaziyatdir. Bunday holat odamni ham ruhiy, ham ma'naviy jihatdan qiynoqlarga soladi. Azoblanish, qiynalish natijasida insonning yuragi ezila boshlaydi. Hattoki bu vaziyatlarga bardosh berolmay yuragi dardlarga chalinadi. Huddi ichida nimadir kuyganday bo'ladi.

(24) 가슴을 짓누르다: [yuragini ezmoq] – azoblanmoq.

Misol:

50 년만에 만난 가족들 모습이 사진처럼 선명하고 만나기 전 그리움은 회한과 아쉬움으로 변해 가슴을 짓누른다⁵¹.

50 yildan so'ng uchrashgan oilalar qiyofasi fotorasmday aniq ko'rinardi. Va uchrashishdan oldingi sog'inchu - afsuslanishlar dastidan yurak ezilardi.

(25) 가슴이 막히다/가슴이 답답하다: [yurak siqilib ketmoq] – qalbi og'rimoq.

(26) 가슴이 저리다: [yuragi jizzilamoq] – qalbi juda ham og'riganidan azoblanmoq.

(27) 가슴이 터지다: [yurak yorilmoq] – tushkun holatga sabr qilish juda ham qiyin.

Yuqorida keltirilgan frazeologiyalarda azobli holatlarga sabr qilish juda ham og'ir kechishi va buning natijasida yurak siqilib ezilishi ma'nolari keltirilgan. Bu yurak

⁵¹동아일보, 2000.9.10.10.쪽.

ezilishidan qon bosim ham ko'tarilib ketish mumkin. Oxir – oqibatda odam vazni ham og'irlashib boradi. Vazn og'irlashgan sari yurakka ta'siri kuchayib boradi.

(28) 가슴이무너지다/가슴이내려앉다/애간장이무너지다: [yuragi tushib ketmoq] – qalbi ozor chekmoq.

Misol: 절절한울음소리가슴이무너져도/ 말이없으면⁵².

Issiqqina yig'i ovozidan qalb ozor chekar/ so'zsiz.

Odam judayam kuchli azob uqubat natijasida his qiladigan tana a'zolari ham barbod bo'lishi, shuningdek, kuyib tamom bo'lishi tabiiydir. (28) ibora ham huddi shu ma'noda qo'llanilgan.

c)G'amginlik bu – oshqozonning chirishidir.

Juda ham kuchli faollikdan birdaniga zarbaga duch kelgan kabi azobni his qilish oshqozonning chirishiday gapdir. Bunday tushkunlikdan insonning ichi ham qizib ketadi.

(29) 가슴/애간장/간장/속/애가타다: [yurak/ jigar/ichi kuymoq] – qalbi juda ham ozor chekmoq.

(30) 간장이녹다: [jigar erimoq] – juda ham dardli.

Yuqorida keltirilgan frazeologiyalarda issiqlikdan qizishib kuyish yoki erib ketish kabi so'z birikmalari orqali tana ichidagi tuyg'ular ifodalangan.

d)G'amginlik bu – oshqozonning sanchishidir.

Xavotir inson yuragini yomon holatga keltirib qo'yadi. Xavotir natijasida inson ne hayollarga bormaydi. Buning natijasida inson tana a'zolarida sanchish alomatlari sezila boshlanadi.

(31) 간장이썩다/속이썩다/ 심장이상하다: [jigar/ich/yurak og'rimoq] – ko'ngil juda ham darz ketmoq.

⁵²현대시. 최재형. «묵상», 1990.83.쪽.

duch kelsa, jigari yomonlashib ko'zi ham yaxshi ko'rmaydigan holatga kelib qoladi. Zarbaning jigarga ta'siri katta bo'lib, buning oqibatida inson nogiron bo'lib qolishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, umidsizlik qorong'ulik orqali ifodalanar ekan. Quyida keltirilgan iborada "qorong'ulashmoq" kabi so'z ko'p qo'llanilgan. Ya'ni, umidning yo'qolishi qorong'ulik bilan ifodalangan.

(35) 눈앞이 캄캄해지다: [ko'z oldi qorong'ulashib ketmoq] – hamma orzu – umidlari havoga uchib ketganday umidsizlikka tushmoq.

(36) 하늘이 캄캄하다: [osmon qoraymoq] – juda ham umidsizlikka tushmoq.

Shunday qilib, g'amginlik tuyg'usini ifodalashda ham xursandchilik tuyg'usi ifodalanganday somatik leksikasi alohida o'rin egallar ekan. G'amginlik tuyg'usi 10 ta tana a'zolari, ya'ni, ko'z, bo'yin, yelka, bag'ir, yurak, jigar, ichak, qon, ter, suyak kabi tana a'zolari orqali ifodalanadi. Yuqorida keltirilgan g'amginlik his-tuyg'ularini ifodalaydigan frazeologiyalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: 1) 115ta g'amginlikni ifodalaydigan iboralar orasida 99 tasi, ya'ni, 86%i somatik frazeologiyalardan iboratdir; 2) Tananing tashqi va ichki a'zosining qo'llanilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tashqi a'zolar qo'llanilgan frazeologiyalarning 23tasi, ya'ni, 24%ni tashkil qiladi. Ichki a'zolar qo'llanilgan frazeologiyalarning 73tasi, ya'ni, 76%i g'amginlik tuyg'ulari ifodalanilgan; 3) G'amginlik tuyg'ularini ifodalaydigan frazeologiyalarning asosi bo'lgan so'z "yurak"dir. "Yurak" somatikasi bilan qo'llanilgan iboralar soni 28tadan iborat bo'lib, koreys xalqi g'amginlik his-tuyg'ularini asosan yurak orqali namoyon qiladi; 4) "Ichak" somatik birikma boshqa his-tuyg'ularni ifodalashda qo'llanilmasdan, ayni g'amginlikni ifodalashda qo'llaniladigan ichki tana a'zodir. Shuningdek, ko'z bilan aloqador bo'lgan somatik iboralar, ya'ni, ko'z yosh, ko'z qarash, ko'z oldi kabi so'z birikmalari orqali ham tushkunlik tuyg'ulari ifodalangan. Inson umidsizlikka tushib qolgan paytda esa hamma yer qorong'ulashib ketganday bo'ladi. Shuning uchun koreys xalqi umidsizlikni yorug'lik bo'lmagan tim qorong'ulikka qiyoslaydi. Inson qanday vaziyatga tushib qolgan taqdirda ham o'zligini yo'qotib qo'ymasligi darkor.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Koreys tili frazeologiyasida “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ular birikmasi to’g’risida yuritilgan yuqoridagi nazariy va amaliy jihatlarni ko’rib, shuningdek, misollar bilan tahlil qilib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Koreys tili frazeologiyasida “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ular birikmalarning o’rni alohida ahamiyatga ega. Bunday frazeologizmlar turli xil xursandchilik va g’amginlik tuyg’ularni ifodalab kelib, ko’chma ma’noda qiyinchiliksiz qo’llaniladi. Shuning uchun tilda ulardan tarkib topgan frazeologizmlar ko’p uchraydi. Koreys tilida 가슴 [yurak], 창자 [ichak], 눈 [ko’z], 머리 [bosh], 발 [oyoq], 손[qo’l], 입[og’iz] kabi somatizmlardan shakllangan frazeologizmlar son jihatdan his-tuyg’uli iboralarning asosiy qismini tashkil qiladi.

2. “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ular birikmalartarkibida asosan ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'ladi. Aynan mana shu ko'chma ma'no frazeologizm ma'nosining shakllanishida xizmat qiladi. Shuning uchun avvalo somatik leksemalarning barcha lug'aviy ma'nolarini (bosh va ko'chma ma'nolarini) bilish talab etiladi.

3. Koreys tili frazeologiyasida “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ular birikmasi ham jismoniy holatlarni, ham turli ruhiy holatlarni ifodalaydi. Ularning kattagina qismi insonning turli ruhiy holatlarini ifodalaydi. Buni quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni, agar so'z hodisalar, faktlar, turli voqelik va jarayonlarni umumiy aks ettirsa, frazeologizmlar esa eng avvalo iztirob va his tuyg’ular kabi insonning ruhiy holatlarini, munosabat, ziddiyat va kurashlar doirasini hamda sifat jihatdan xarakterlashni o'zida qamrab olgan bo'ladi.

4. Insonning emotsional va ruhiy holatini ifodalovchi frazeologiyalar ifoda ma'nosi, ma'no darajasi va uslubiy vazifalariga qarab ijobiy yoki salbiy, xursandchilik va g’amginlik iboralarga bo'linadi. Frazeologizmlar ifoda ma'nosiga qarab, guruhlarga ajratilar ekan, avvalo, insonning ruhiy holatini ifodalovchi, so'ngra jismoniy holatini ifodalovchi somatik iboralar qo'llaniladi.

5. “Xursandchilik” va “G’amginlik” his-tuyg’ular birikmalarorasida milliy xususiyatli frazeologizmlar mavjud bo'lib, ularni ikki guruhga ajratish mumkin: tarkibida milliy xususiyatli so'zlar qatnashgan frazeologizmlar va tarkibida milliy xususiyatli so'zlar qatnashmagan bo'lsa ham, milliy xususiyatni ifodalovchi somatik iboralar. Bunday frazeologizmlar tilning frazeologik qatlamining alohida ahamiyatiga egadir.

6. Koreys tilida xursandchilik tuyg’usini ifodalaydigan frazeologiyalar somatik so'zlar bilan o'zaro bog'langan holda qo'llanilar ekan. Quvonch 15 ta, ya'ni, ko'z, quloq, bosh, og'iz, yelka, qorin, kindik, bel, orqa, oyoq, boldir, ich, yurak, o't pufagi, oshqozon, kabi tana a'zolari bilan ifodalangan. Bu bilan insoniyat xursandchilikni boshidan to oyog'ining uchigacha butun tanasi bilan his qilishini bilish mumkin. Frazeologiyalardagi xursandchilikning ma'nosi “hayotiy kuch,

bayram, umid” kabi birikmalar bilan ta’riflanadi. “Xursandchilik bu – hayotiy kuchdir” deb nomlanishida hayajon, jimirlash, iliqlik kabi tuyg’ular ham birgalikda qo’llaniladi. Xursandchilikni ifodalaydigan asosiy tana a’zolaridan biri qalb hisoblanganligi sababli quvonchni ham qalb orqali his qilish tabiiydir. Qalb orqali hamisha insoniyat o’z tuyg’ularini ifodalay oladi. Mammuniyatlik raqs, qo’shiq va tabassum orqali his qilinib, mammuniyatlik vositasida ham cheksiz xursandchilikni his qilish mumkin.

7. G’amginlik tuyg’usini ifodalashda ham xursandchilik tuyg’usi ifodalanganday somatik leksikasi alohida o’rin egallar ekan. G’amginlik tuyg’usi 10 ta tana a’zolari, ya’ni, ko’z, bo’yin, yelka, bag’ir, yurak, jigar, ichak, qon, ter, suyak kabi tana a’zolari orqali ifodalanadi. 115ta g’amginlikni ifodalaydigan iboralar orasida 99 tasi, ya’ni, 86%i somatik frazeologiyalardan iboratdir. Tananing tashqi va ichki a’zosining qo’llanilishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, tashqi a’zolar qo’llanilgan frazeologiyalarning 23tasi, ya’ni 24%ni tashkil qiladi. Ichki a’zolar qo’llanilgan frazeologiyalarning 73tasi, ya’ni, 76% i g’amginlik tuyg’ulari ifodalanilgan. Ruhiy tushkunlik, azob chekish, qiynalish kabi salbiy holatlar asosan yurakka yomon ta’sir qilishi, shuningdek, mazkur holatlar sabab yurakda faoliyatida o’zgarishlar bo’ladi. Yurakdagi mazkur jarayonlar frazeologizmlarda ham o’z aksini topgan bo’lib, ruhiy tushkunlik “umidsizlik”, “ilojsizlik” va “imkoniyatsizlik” kabi holatlar koreys tilida asosan “qorong’ulik”erkin so’z birikmalarining butunlay ko’chma ma’noda qo’llanilishi orqali vujudga kelgan.

8. Keltirilgan misollarga e’tibor bersak, ularning asosiy qismini 가슴[yurak], 간[jigar] va 속[yurak/ko’ngil/ich]somatizmli frazeologizmlar tashkil qiladi. Odatda odam bezovtalanish, tashvishlanish yoki qayg’urish holatlarida bo’lganda, yurak faoliyatida jiddiy o’zgarish kuzatiladi. Aynan shu sabab keltirilgan iboralarda yurak obrazi faol qatnashgan. Shuningdek, 마음 [qalb], 목 [tomoq], 발 [oyoq], 얼굴[yuz], 입 [og’iz], 코[burun] komponentli frazeologizmlar ham yuqoridagi ruhiy holatlarni ifodalab kelgan.

9. “Xursandchilik” va “G’amginlik”his-tuyg’ular birikmalarini tarjima qilish jarayonida eng avvalo grammatik, leksik, semantik xususiyatlariga hamda milliy

xususiyatlariga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Shuningdek, ularning nutqdagi, badiiy adabiyot matni yoki turli matnlardagi holatini tushunib yetib, so'ng tarjima qilish lozim bo'ladi.

10. Koreys va o'zbek tillaridagi "Xursandchilik" va "G'amginlik" his-tuyg'ular birikmalar har jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lsa ham, mutlaq (to'liq) ekvivalent bo'ladigan birliklar sanoqlidir. Mutlaq ekvivalentlar tarjima jarayonida biri ikkinchisini barcha nutqiy vaziyatlarda bimalol almashtirib, tarjima yaratishda katta rol o'ynaydi.

11. Koreyada 1996-2000 yillarda nashr qilib chiqarilgan gazeta va maqolalar, nazm va nasrlardan keltirilgan misollar ko'rib chiqilib, qanday holatda "Xursandchilik" iboralari, qanday holatda "G'amginlik" iborlar qo'llanilishiga ahamiyat beriladi.

12. "Xursandchilik" va "G'amginlik" his-tuyg'ular birikmalarini o'zbek tiliga muqobil variantlar yordamida tarjima qilishda, ko'p hollarda muqobil variantlarning tarkibida bir xil komponentning mavjudligini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. Karimov I.A. "Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimizga va qat'iy irodamizga bog'liqdir". -T. O'zbekiston, 2004. B.284.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

2. Bozorboev K.T. O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari: filol. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan diss. – Samarqand: A.Navoiy nomidagi SamDU.2001. B.27.
3. E.G'oziyev. "Psixologiya" Toshkent. 2000. B.133.
4. Hamroyev M.A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. -T, 2007. B.21

5. Raxmatullaev SH. Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari. T.: O'z FA nashriyoti, 1997.B.5.
6. Umarov E.A. Frazeologik lug'at, Xazoin-ul maoniy A.Navoiy, Toshkent, 1991. B.14.
7. Usmonova Sh.R. O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar: filol. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan diss. – T.: M.Ulug'bek nomidagi ToshDU.1998.B.48.
8. Xojiyev A. Tilshunoslikning izohli lug'ati. - T., 1998. B.125.

Rus tilidagi adabiyotlar:

9. Н.М. Шанский. Лексикология современного русского языка. –Москва, 1992. С.173.

Ingliz tilidagi adabiyotlar:

10. Lakoff. “What categories reveal about the mind?” The University of Chicago press. 이기우 옮김. “인지의미론”. -한국문화사, 1992. 36.쪽.
11. Menninger Karl.A. “Love and hateful”. – Beacheo, 1996. P.35.

Koreys tilidagi adabiyotlar:

12. 김기홍. “감정개념의 정의”.-한국외국어대학교, 1993.89.쪽.
13. 김정일. “아하프로이드”.-푸른솔, 1997. 27.쪽.
14. 김종택. “동의어의 의미평경: 의미평정방법의 모색을 위하여”. -대구교대, 1991.6.쪽.
15. 김종택. “이디엄연구”.-한국어문학회, 1991.17.쪽.
16. 김청송. “통증심리”.-중앙적성출판사, 1997. 43.쪽.
17. 김홍수. “현대국어심리동사구문에 관한 연구”, 1991.15.쪽.
18. 국민일보. -서울, 2000.
19. 동아일보. - 서울, 1999.
20. 문화일보.- 서울, 2000.
21. 박영순. “관용어에 대하여”. -국어교육, 1995. 53-55 쪽.
22. 성숙자. “우리말 감정어휘의 의미구조”.-부산대학교, 1991. 9.쪽.
23. 세계일보.-서울, 2000.
24. 심훈. “상록수”, 1990.33.쪽
25. 오제운. “우리말 관용어 연구”. -원광대, 1998.23.쪽.

26. 이규태. 단편소설. -서울, 1990.
27. 이남표. “고통과 쾌락”. -서울, 1995. 67.쪽.
28. 이성식-전신현. “감정사회”. -한울아카데미, 1995. 47.쪽.
29. 이어령. “문장대백과사전”. -금성출판사, 1997. 27.쪽.
30. 조선일보. -서울, 2000.
31. 중앙일보. -서울, 2000.
32. 한겨레. -서울, 2000.
33. 한국일보. -서울, 2000.
34. 현대시. -서울, 1990.
35. 한국속담. -서울, 2005.

Lug’atlar:

36. 한러사전. -서울, 1997.
37. 국어사전. -서울, 1995.
38. O’zbekcha-koreyschalug’at. Samarqand Davlatchettillari instituti, 2008.
39. 새한노사전. 한국외국어대학교출판부, 2008.

Internet saytlar:

40. <http://krdic.naver.com/list.nhn?kind=idiom>
41. <http://krdic.naver.com/detail.nhn?docid>
42. <http://endic.naver.com/krenEntry.nhn?entryId>